

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
MAGISTRATURA BO'LIMI


*Qo'lyozma huquqida*  
UDK:811.512.133.81.373.612.2

JABBOROVA SOJIDA SOATMO'MIN QIZINING  
BADIY MATNDA METAFORALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI

70230101-Lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik  
darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:



f.f.f.d. (PhD) Xolova M.

Termiz-2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2021-yil 3-dekabrda №53 T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan. Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti "O'zbek tilshunosligi" kafedrasida tayyorlangan.

Magistrlik dissertatsiyasining elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb-sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (69-raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi 43-uy).

Ilmiy rahbar:

f.f.f.d. (PhD) Xolova M.

Kafedra mudiri:

f.f.f.d. (PhD) Amonturdiyev N.

Magistratura bo'limi boshlig'i:

p.f.f.d. (PhD) Narbayev A.



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
UDK\_\_\_\_\_

**JABBOROVA SOJIDA SOATMO‘MIN QIZINING**  
**BADIIY MATNDA METAFORALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI**

70230101-Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik  
darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.f.d. (PhD) Xolova M.**

**Termiz-2023**

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil \_\_\_\_-martdagi №-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan. Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida tayyorlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasining elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb-sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy).

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.f.d. (PhD) Xolova M.**

**Kafedra mudiri:**

**f.f.f.d. (PhD) Amonturdiyev N.**

**Magistratura bo‘limi boshlig‘i:**

**f.f.f.d. (PhD) Narbayev A.**

**70230101-Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti Jabborova Sojida  
Soatmo‘min qizining “Badiiy matnda metaforalarning stilistik xususiyatlari”  
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi  
ANNOTATSIYASI**

**Tayanch so‘zlar:** metafora, leksikologiya, ma’no ko‘chishi, stilistik figuralar va troplar, badiiy asar tahlili.

**Tadqiqot obyektlari:** sifatida o‘zbek tilidagi ma’no ko‘chish turlaridan biri bo‘lgan metaforalar tanlandi.

**Ishning maqsadi:** o‘zbek tilida badiiy uslubda qo‘llanilgan metaforalarning tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqot metodlari:** Asosan, tavsiflash, uslubiy va qiyosiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- badiiy matnda metaforaning ahamiyatini belgilandi;
- metaforaning lisoniy tahlili masalasini yoritish, metaforaning mohiyati va uning turlarini aniqlandi;
- metaforaning unga yondosh bo‘lgan hodisalar bilan munosabati masalasiga aniqlik kiritildi;
- o‘zbek tilidagi metaforalarni xususiy aspektda lingvistik tahlil qilindi.

**Amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalari hozirgi o‘zbek adabiy til tahliliga oid, leksikologiya va uslubshunoslikka oid izlanishlarni yangi ma’lumotlar bilan boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalardan tilshunoslik, leksikologiya va uslubshunoslik sohalarida foydalanish mumkin. To‘plangan dalillar, amalga oshirilgan tahlillar leksikologik tahlilni o‘rganish uchun muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadbiq etish darajasi:** Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, leksikologiya va uslubshunoslikda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

**Qo‘llanilish sohasi:** Oliy ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim maktablari.

**70230101-Master's thesis of the master's student of Linguistics (Uzbek language) Jabborova Sojida Saatmo'min on the topic "Stylistical features of metaphors in literary texts"**

**ANNOTATION**

**Key words:** metaphor, lexicology, transfer of meaning, stylistic figures and tropes, analysis of a work of art.

**Research objects:** Metaphors, one of the types of transfer of meaning in the Uzbek language.

**The purpose of the work:** is to analyze the metaphors used in artistic style in the Uzbek language.

**Research methods:** Mainly, descriptive, methodological and comparative analysis and classification methods were widely used.

**The results obtained and their novelty:**

- the importance of metaphor in the artistic text was determined;
- clarification of the issue of linguistic analysis of metaphor, the essence of metaphor and its types were determined;
- the question of the relationship of the metaphor with the phenomena related to it was clarified;
- metaphors in the Uzbek language were linguistically analyzed in a special aspect.

**Practical significance:** The results of the research will enrich the current Uzbek literary language analysis, lexicology and methodological studies with new information. The practical importance of the research is that the research results can be used in the fields of linguistics, lexicology and methodology. Collected evidence, performed analysis serve as important material for studying lexicological analysis.

**Application level:** The practical value of the research is that the results of the research can be used as a theoretical resource in linguistics, lexicology and methodology.

**Field of application:** Higher education and general secondary schools.

## MUNDARIJA

**Kirish**.....

### **I BOB. TILSHUNOSLIKDA METAFORA TADQIQIGA DOIR ISHLAR TAHLILI**.....

1.1-§. Metaforalogiya – metaforalarni o‘rganuvchi soha sifatida talqini va jahon va o‘zbek tilshunosligida metaforaning o‘rganilish tarixi.....

1.2-§. Metaforalarning lingvistik jihatdan tahlili.....

1.3-§. Metafora va unga yondosh hodisalar.....

Bob bo‘yicha xulosalar.....

### **II BOB. BADIY ASARLARDA METAFORA VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

2.1-§. Metaforalarning kognitiv-stilistik xususiyatlari.....

2.2-§. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan metaforalar hamda ularning asardagi ahamiyati.....

Bob bo‘yicha xulosalar.....

### **III BOB. O‘ZBEK SHE’RIYATIDA METAFORALAR** .....

3.1-§. Saida Zunnunova she’riyatida metaforalar .....

3.2-§. Usmon Azim ijodida metaforik obrazlar.....

Bob bo‘yicha xulosalar.....

**XULOSA**.....

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**.....

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Hozirgi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda ulkan o'zgarishlar, tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda har bir shaxs buyuk o'tmishimizni yaxshi bilgan holda kelajagimiz ravnaqi uchun eltadigan eng oqilona yo'llardan borish talab qilinadi.

O'zbekiston mustaqilligi o'zbek adiblari oldiga yangidan–yangi vazifalar qo'ydi. Badiiy ijodda qalam tebratayotgan ijodkorlarning so'zi millatning ijtimoiy – siyosiy ongini, ma'naviy, axloqiy dunyoqarashini shakllantirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligi fani o'tgan davr mobaynida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. O'zbek tilshunosligida ijodkor poetik nutqini lingvistik o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar mumtoz va zamonaviy adiblarimiz individual badiiy nutqi xususiyatlariga bag'ishlangan ishlarning soni ancha-muncha bo'lib, ular individual badiiy matnni ilmiy tadqiqi orqali ona tilimizning muayyan nozik qirralarini namoyon etish uchun xizmat qiladi. "...Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak"<sup>1</sup>.

Jahon va o'zbek tilshunosligi fani o'tgan davr mobaynida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Buni tilning barcha sathlari bilan bog'liq muammolarning o'rtaga tashlanishi va olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ham ko'rsatib turibdi. Bunga "matn tilshunosligi" deb ataluvchi tilshunoslik yo'nalishining katta sur'at bilan rivojlanib borayotganligini misol sifatida ko'rsatish mumkin. Matn lingvistikasi tilshunoslikning alohida yo'nalishi sifatida shakllandi va muttasil rivojlanib bormoqda. Badiiy matnda leksik sathdagi ko'chim (trop)lar nihoyatda katta ahamiyatga ega, ular badiiy mazmunni ifodalashda eng faol vositalardir. Ayniqsa, ko'chimlar orasida metafora muhim va keng qo'llanuvchi vosita sifatida tilimizda

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга мурожаатномасидан. "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил, 25 январь сони.



badiiy tasavvurlarining natijalari asosida yuzaga kelgan. Metaforalarning lisoniy, mazmuniy va uslubiy xususiyatlari jahon va o'zbek tilshunosligida ancha keng o'rganilgan. Tilda ilgari mavjud bo'lgan nomning muayyan o'xshashlik asosida yangi ma'no uchun qo'llanishi oddiy nominatsiya vazifasining bajarilmaydi, balki tinglovchiga ta'sir etish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi hamda tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Ana shunday ko'chimlardan biri metaforadir. Metafora nominatsiya jarayonida muhim o'rin tutishiga qaramay, ko'proq badiiy vosita sifatida adabiyotshunoslarning diqqatini jalb qilib keldi. Lekin har qanday badiiy ifoda lingvistik vosita yordamida amalga oshiriladi. Shunday ekan, badiiy nutq tarkibidagi ko'chimlar muayyan lingvistik qonuniyatlar asosida maydonga keladi. Shuning uchun ham ular faqat adabiyotshunoslikninggina emas, balki tilshunoslikning ham tekshirish obyekti sanaladi. Metaforalogiya va metafora masalasi bugungi kunda nafaqat filologiya, balki falsafa, mantiq, psixologiya kabi qator gumanitar ilm sohalari tomonidan ham o'rganilib, metaforaning mohiyati, strukturasi, xillari va ko'rinishlari borasida yangi-yangi qarashlar paydo bo'ldiki, natijada ular erishgan yutuqlar asosida tilshunoslikda ham bu masalani qayta ko'rish zarurati yuzaga keladi. Ana shu masalalarni hal qilish bu mavzuning jahon va o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Metafora atamasi paydo bo'lganidan beri o'tgan ikki yarim ming yildan ziyod vaqt davomida metafora, metaforiklik masalalariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Agar antik davrlarda metaforaga ko'proq ritorikaning obyekti sifatida qaralgan bo'lsa, keyingi davrlarda unga poetikaning, aniqrog'i, poetik stilistikaning obyekti sifatida qaraldi, sharq va g'arb olimlari tomonidan atroflicha tadqiq etildi. Metaforani faqat ko'chim yoki badiiy vosita emas, balki inson tafakkurining, xususan, obrazli tafakkurning muhim mexanizmlaridan biri sifatida tushunish bilan bog'liq holda XIX asr o'rtalaridan adabiyotshunoslik qatori tilshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya, semiotika kabi ko'plab ilm sohalari ham o'zining qiziqishlari doirasida tadqiq etib keladi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham metaforani ko'chim sifatidagina tushunish barham topib, uning badiiy asarda, badiiy tafakkurda tutgan o'rni, ijodiy uslubni

belgilovchilik xususiyati o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. O'zbek tilshunosligida 70-yillardan boshlab, ko'p ma'nolilik va so'zlarning ko'chma ma'nolarini tadqiq qilishga bag'ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi. Bu borada tilshunos olim M.Mirtojiyevning xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, metaforani tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan, alohida ijodkor she'riyatida tutgan o'rnini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratildi. Bu tadqiqotlarda ko'chma ma'noni hosil qiluvchi vositalar qatorida metaforaga ham o'rin berilgan va ko'chma ma'noni vujudga keltiruvchi vositalar sistemasida metaforaning boshqa vositalardan farqli jihatlarini aniqlashga e'tibor qaratilgan. G.Qobuljonova metafora va uning lingvistik tabiatini alohida monografik planda o'rgangan. Ingliz tilshunosligida esa Jorj Lakof metaforalarning uslubiy, badiiy, frazeologik xususiyatlarini o'rgangan eng mashhur olim hisoblanadi. Panter, Blek kabi tilshunos olimlar ham metaforalar bo'yicha bir nechta ilmiy ishlar olib borishgan. Jahon tilshunosligi va stilistikasida Aristotel, N.G.Sklyarevskaya, Kvintilian, Demetriy, Tsitseron va I.R.Galperin, I.V.Arnold va boshqalar metafora va uning ta'riflari, roli va unga bog'liq hodisalar haqida bilib, o'z qarashlarini bildirganlar.

O'zbek stilistikasida M.Mirtojiyev, A.Shomaqsudov, Shavkat Rahmatullayev va boshqalar metafora va uning ta'riflari, o'rni va unga bog'liq hodisalar haqida o'rganib, o'z fikrlarini bildirgan.

**Tadqiqot obyekti va predmeti** sifatida sifatida o'zbek tilidagi ma'no ko'chish turlaridan biri bo'lgan metaforalar tanlandi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:** o'zbek tilida badiiy uslubda qo'llanilgan metaforalarning tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot maqsadini amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

- badiiy matnda metaforaning ahamiyatini belgilash;
- metaforaning lisoniy tahlili masalasini yoritish, metaforaning mohiyati va uning turlarini aniqlash;

- metaforaning unga yondosh boʻlgan hodisalar bilan munosabati masalasiga aniqlik kiritish;

- oʻzbek tilidagi metaforalarni xususiy aspektda lingvistik tahlil qilish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- badiiy matnda metaforaning tutgn oʻrni belgilandi;

- metaforaning lisoniy tahlili masalasi yoritildi, metaforaning mohiyati va uning turlari aniqlandi;

- metaforaning unga yondosh boʻlgan hodisalar bilan munosabati masalasiga aniqlik kiritildi;

- metaforalarning kognitiv-stilistik xususiyatlari ochib berildi.

- Saida Zunnunova va Usmon Azim sheʼriyatida qoʻllanilgan metaforalar lingvistik tahlil qilindi va ularning ijodidagi individualliklar ochib berildi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:** Ilmiy tadqiqot ishida oʻzbek tilida metaforalarning lisoniy xususiyatlari yoritildi va ular haqida aniq xulosalar berildi.

**Tadqiqot mavzusi boʻyicha adabiyotlar sharhi:** Oʻzbek tilshunosligida 70-yillardan boshlab, koʻp maʼnolilik va soʻzlarning koʻchma maʼnolarini tadqiq qilishga bagʻishlangan bir qator asarlar maydonga keldi. Bu borada tilshunos olim M.Mirtojiyevning xizmatlarini alohida taʼkidlash lozim. Mazkur yoʻnalish boʻyicha ham oʻzbek tilshunosligida qator ilmiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, tilshunos olim A.Mamajonovning “Tekst lingvistikasi<sup>2</sup>” nomli qoʻllanmasida matn va uning oʻziga xos xususiyatlari, matn turlari, matn qismlarini bogʻlovchi vositalar yuzasidan fikr yuritib badiiy matnning ham oʻziga xos xususiyatlarini, M.Qurbonovanning “Matn lingvistikasi<sup>3</sup>”, E.Qilichevning “Matnning lingvistik tahlili<sup>4</sup>” qoʻllanmasida matn koʻrinishlari, badiiy matn va uni lisoniy tahlil qilish, D.Xudoyberganovanning “Matnning antroposentrik tadqiqi<sup>5</sup>” nomli monografiyasida

---

<sup>2</sup> Мамажонов А. Текст лингвистикаси.-Тошкент: Фан, 1989

<sup>3</sup> Курбонова М. Матн тилшунослиги.-Тошкент: Университет нашриёти, 2014

<sup>4</sup> Э.Қиличев. Матннинг лингвистик таҳлили. –Бухоро: 2000

<sup>5</sup> Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. Тошкен: Фан, 2013

badiiy matnning kognitiv, psixolingvistik va lingvokulturologik tahlili, M.Yo‘ldashevning “Badiiy matn va uni lingvopoetik tahlili asoslari” kabi ilmiy tadqiqot badiiy matn va uning lisoniy xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. O‘zbek stilistikasida M.Mirtojiyev, A.Shomaqsudov, Shavkat Rahmatullayev va boshqalar metafora va uning ta’riflari, o‘rni va unga bog‘liq hodisalar haqida o‘rganib, o‘z fikrlarini bildirgan. Mazkur tadqiqot ishida ushbu manbalar metodologik asos vazifasini o‘tadi.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi.** Asosan, tavsiflash, uslubiy va qiyosiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari leksikologiya va o‘zbek tili nut madaniyatiga oid izlanishlarni nazariy ma’lumotlar bilan boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, leksikologiya va adabiyotshunoslikda badiiy asar tahlil jarayonida foydalanish mumkin.

**Ishning tuzilmasi tavsifi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, olti fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 80 sahifani tashkil etadi.

## I BOB. METAFORALARNING NAZARIY TAHLILI

### 1.1-§. Metaforalogiya – metaforalarni o‘rganuvchi soha sifatida talqini va jahon va o‘zbek tilshunosligida metaforaning o‘rganilish tarixi

Jahon va o‘zbek tilshunosligiga nazar tashlasak, “Metaforalogiya” degan alohida soha mavjud. Metaforalogiya – bu metaforalarni o‘rganuvchi soha yoki yo‘nalish hisoblanadi. Metaforalarni tarixini o‘rganishdan oldin, avvalo, bu so‘zning etimologiyasiga e‘tibor berishimiz kerak. “Metafora” so‘zi yunon tilidan kelib chiqqan bo‘lib, tarjimada “transfer” (ko‘chirish) degan ma‘noni bildiradi. Predmetlar orasidagi umumiy o‘xshashlikka asoslangan holda ma‘no ko‘chirish – metafora bo‘lib, bunda asosiy (bosh) belgi narsa va hodisalar orasidagi qaysi bir tomon bilan o‘xshashlikdir.

Jahon tilshunosligida esa Aristotel quyidagi fikrni aytib o‘tadi: “Metafora - bu majoziy ma'noda ishlatilgan so‘z yoki ibora, obyekt yoki hodisaning boshqa hodisa bilan qandaydir munosabatlar asosida majoziy tasviridir”. O‘zbek tilshunosligida Baxtiyor Mengliyev metaforaga quyidagicha ta’rif beradi: “Metafora – bu narsa va hodisalar mohiyatidagi o‘xshashlik asosida biror leksemaning o‘z xususiy ifodalanmishidan boshqa narsa va hodisalarni atash uchun ishlatiladi”.<sup>6</sup>

Tilni metaforasiz tasavvur qilib bulmaydi. O‘zbek leksikologiyasi va uslubshunosligida metafora ancha murakkab ma‘no ko‘chish hodisasi hisoblanib, qadimda va ayni zamonda tilshunoslar va adabiyotshunoslar diqqatini o‘ziga jalb etib kelgan va bu davom etib kelmoqda.

Metafora nazariyasi bo‘yicha tadqiqotlarni qadimda ya’ni XVI asrda Aristotel boshlab bergan va shu tariqa ikki ming yildan ko‘proq yilga borib taqaladi. Dastlab jahon tilshunosligida metaforaning o‘rganilish tarixiga nazar tashab, so‘ngra o‘zbek tilshunosligida ham uning tarixini o‘rgangan o‘zbek tilshunoslari va adabiyotshunoslarning fikrlari bn tanishib chiqamiz. Aristotel poetika va ritorika muammolari bilan shug‘ullanib, u metaforani faqatgina nutq timsoli sifatida ko‘rib chiqadi. Metaforani alohida til hodisasi sifatida ta’kidlamaydi. Ayrim manbalarda

---

<sup>6</sup> Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Фан ва технология, 2009. – Б. 28.

aytilishicha, Aristotel o‘zi fikr yuritishda metafora qo‘llashdan qochgan degan fikrlarni kuzatishimiz mumkin. G.N.Sklyarevskaya o‘zining “Til tizimidagi metafora” nomli kitobida aytishicha, Aristotel tufayli XX asrda metafora “tilning ajralmas qismi, kommunikativ, nominativ va kognitiv maqsadlar uchun zarur bo‘lgan” nuqtai nazari rivojlangan.<sup>7</sup>

G.N.Sklyarevskaya o‘z kitobida qadimgi faylasuflarning metafora haqidagi bayonotlarini keltirib, ular allaqachon metaforani ko‘p qirrali o‘rganish uchun asos bo‘lgan g‘oyalar urug‘ini o‘z ichiga olganligini isbotlaydi. Masalan, Kvintilian “metafora bizga tabiatning o‘zi tomonidan berilgan” va “hech qanday ob’ekt belgisiz qolmasligini ta’minlashga yordam beradi” deb hisoblagan. Kvintilianning fikrlariga qo‘shimcha tarzda Demetrius shuni ta’kidlaydi: “kundalik nutq ba’zi tushunchalar uchun shunday yaxshi metaforalarni yaratdiki, endi ular uchun aniq iboralarga muhtoj emas, bunday metafora tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilash o‘rnini egallab, ildiz otgan”. Tsitseron metaforani quyidagich izohlaydi: “Metafora tilda yetishmayotgan ma’nolarni – o‘xshashlik orqali shakllantiradi”. Teofrast, shuningdek, tildagi so‘zlarning yetishmasligini to‘ldirish uchun metafora huquqini tan oldi. Ammo Aristotel, Platon va ularning izdoshlari antik davrlarda paydo bo‘lgan metafora nazariyasini o‘rganishlari gullab-yashnaganidan so‘ng, ritorikaning uzoq muddatli tanazzulga uchrashi metafora nazariyasining rivojlanishining pasayishiga olib keldi. Taniqli Ingliz filologi A.Richards shunday deb ta’kidlaydi: “Ritorika tarixi davomida metafora so‘zlarning moslashuvchanligiga asoslangan o‘ziga xos hiylanayrang sifatida, faqat ayrim hollardagina o‘rinli va alohida san’at va ehtiyotkorlik talab qiladigan narsa sifatida qaralib kelgan.”<sup>8</sup> A.Richards 18-asrdagi barcha ilmiy tushunchalar metafora nazariyasiga murojaat qilganda yo‘l qo‘ygan xatoni ko‘rsatib, “bizning nazariyalarimizni metafora yoki tasvirlash apparatini o‘zi tasvirlayotgan narsa bilan

---

<sup>7</sup> Sklyarevskaya G.N., 1993 yil, 6-bet

<sup>8</sup> Ричардс А. Философия риторики // Теория метафоры / Вступ. ст. и сост. Н. Д. Арутюновой; Общ. ред. Н. Д. Арутюновой и М.А.Журиной. М.:Прогресс,1990.С. 44–67.

aralastirib yubormaslik kerakligi haqida ogohlantirdi".<sup>9</sup> Richards metafora nazariyasining asosiy vazifasi sifatida insonga metafora va fikrlashni o'zlashtirish san'atini o'rgatish deb hisoblagan. 19-asrning oxirida metaforani o'rganishda turg'unlik yuzaga keldi, Richards buni yangi yondashuvlar va samarasiz tadqiqot usullarining yo'qligi bilan izohladi. She'riyat va nasrda metafora nafaqat leksik ekspressivlik vositasi, balki obraz yaratish usuli hamdir. Noaniqlik bilan bog'liq kamchiliklarning paydo bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi tufayli uzoq vaqt davomida metaforalardan foydalanish fan tili uchun nomaqbul deb hisoblangan. Chuqur ma'noga ega bo'lgan ko'plab metaforalarning yangiligi va kutilmaganligi ularni to'g'ri idrok etishga bir necha bor to'siq bo'lgan, ammo shunga qaramay, metaforani o'rganish zamonaviy fanning ko'plab muammolarini tushunish uchun, yangi bilimlarni ifodalash uchun kalit bo'lishi mumkinligi haqida fikr bildirilgan.<sup>10</sup>

T.Gobbs shunday deb yozgan edi: "Inson ongining nuri avvaldan aniq va konkret ta'riflar orqali har qanday noaniqlikdan tozalangan tushunarli so'zlardir." Metafora – ma'nosiz va noaniq so'zlar va ularning yordami bilan mulohaza yuritish son-sanoqsiz bema'niliklar orasida yurishni anglatadi, natijada ular kelishmovchilik va ikkilanish yoki nafratdir ... Chunki kundalik nutqda quyidagilarni: "yo'l bu yerdan yoki u yerdan ketadi yoki olib boradi", "maqol u yoki bu yo'lni aytadi" (yo'l yurolmaydi, gapirishga maqol emas) qo'llasak ham, lekin biz fikr yuritib, haqiqatni izlaganimizda, bunday nutqlar qabul qilib bo'lmaydi ". Metafora nutqning ajralmas elementi sifatidagi nuqtai nazar XX asrda qayta ko'rib chiqila boshlandi, va yangi ilmiy bilimlar turli o'lchovlarda ko'rib chiqilmoqda. Metaforalarning turli xil materiallarni birlashtirgan holda yaxlitlik ya'ni bir butulik holda yaratish qobiliyati doimo ko'plab mualliflarning qiziqishini o'ziga tortadi. S.Melikova-Tolstaya quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "Antik ritorika metaforani yuzaki ko'rib chiqadi, garchi metaforani semantik shakllanish sifatida

---

<sup>9</sup> Величковский Б.М. Современная когнитивная психология. – М., 1982. С– 234.

<sup>10</sup> Гусев, стр. 105, ссылка на: Волков Волков Н.Н. Что такое метафора. – В кн.: Художественная форма. М., 1927, С.85-86, 116-117

tushunish allaqachon belgilab berilgan bo'lsa-da, u turli ob'yektlar orasidagi o'xshashlikni ajratib, yaxlit obrazni bildiradi va shu bilan bevosita hissiy organlarga ta'sir qiladi".<sup>11</sup>

Shu qatorda Amerikalik faylasuf Jon Rojers Searl esa quyidagi o'z fikrlarini bayon qiladi: "metaforaning funksional muammosi bu umumiy muammoning alohida holati, ya'ni so'zlovchining bildirayotgan fikrida ko'zda tutilayotgan ma'nosi

va aytilayotgan gapdagi ma'nosi o'rtasidagi farqni tushuntirish hisoblanadi."<sup>12</sup> Ammo uzoq vaqt davomida metafora mohiyati, tabiati va vazifalari deyarli tahlil qilinmadi. Faqat XX asrning 60-yillarida metafora nazariyasini ilmiy tadqiq qilish bo'lgan qiziqish ko'pchilikni o'ziga jalb etdi. Metaforani ilmiy bilimlar bilan bevosita bog'lagan birinchi tadqiqotchilardan biri bu Amerikalik mantiqchi va faylasuf Maks Blek edi. U "**focus**" (fokus) va "**frame**" (ramka) atamalarining muallifi hisoblanadi. Masalan: **The chairman plowed through the discussion** ("Yig'ilish raisi muhokamani davom ettirdi"). Bu gapda faqatgina bitta so'z metafora sifatida ya'ni majoziy ma'noda qo'llangan - **plowed (itarib yuborilgan)**, qolganlari esa to'gridan to'gri o'z ma'nosida qo'llangan. Biz **plowed (itarib yuborilgan)** so'zini metafora markazi (focus) va uning atrofini ramka (frame) deb ataymiz.<sup>9</sup> Blekning ta'kidlashicha, ko'plab metaforalardan iborat gaplarning yaratilishi maqollar, allegoriyalar, topishmoqlar paydo bo'lishiga olib keladi. U metafora bo'yicha uchta nuqtai nazarni ko'rib chiqadi: interaksionistik nuqtayi nazari (interaction view), metaforaning o'rnini bosuvchi nuqtai nazar (a substitution view), qiyosiy nuqtai nazar (comparison view).<sup>13</sup>

Metaforaning o'rnini bosuvchi ko'rinishiga ko'ra, har doim metafora ifodasi ba'zi bir ekvivalentlar o'rniga uning so'zma-so'z qo'llangan ifodasi qo'llaniladi va shuningdek, metaforani o'z ichiga olgan har qanday jumla to'g'ridan-to'g'ri

---

<sup>11</sup> Меликова-Толстая С. В. Античные теории художественной речи // Античные теории языка и стиля / Под общей ред. О.М. Фрейденберга. – М.; Л.: ОГИЗ, Соцэкгиз, 1936. С– 340.

<sup>12</sup> Серль Дж. Метафора / Дж. Серль // Теория метафоры. Под ред. Н.Д. Арутюновой. – М.: Прогресс, 1990. С – 307.

<sup>13</sup> Макс Блэк. Метафора // Теория метафоры. М., 1990. С. 153-172. (Пер. М.А. Дмитриевской. статьи Max Black . Metaphor. - In: M. Black. Models and Metaphor. Studies in language and Philosophy. Ithaca- London, Cornell University Press, 1962, p. 25-47)



ma'noga ega bo'lgan ma'lum bir jumlar to'plamining o'rnini bosuvchi sifatida qaraladi.

Blekning aytishicha, metaforaning o'rnini bosuvchi nuqtai nazari (a substitution view) ko'pchilik mualliflar tomonidan qabul qilinadi. Oksford lug'atida metafora va metaforik ifoda haqida quyidagi ta'rif keltirilganini ko'rishimiz mumkin: "Metafora - ism yoki tavsiflovchi iboraning qaysidir predmetga ko'chirilishidan iborat bo'lgan, aslida bu ibora qo'llanilishi mumkin bo'lgan ob'yektdan farq qiladi, lekin bir oz o'xshash bo'lgan nutq shakli hisoblanadi, natija esa metaforik ifodadir. Black bu nuqtai nazarni eng ildiz otgan deb belgilaydi va boshqacha fikrni ilgari surgan muallif eski ta'rifga: "bir narsani aytib, boshqasini nazarda tutish" yaqinlashmoqda, deb hisoblaydi. Metafora diqqat markazidagi ma'noni yetkazish uchun xizmat qiladi, uni so'zma-so'z ifodalash mumkin, metaforani tushunish kodni ochish yoki topishmoqni hal qilishdir. Bu holda metafora qo'llanilishini tilda so'zma-so'z ekvivalentining yo'qligi bilan izohlash mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda, metafora o'ziga xos kataxreza (catachresis - eski so'zlarga yangi ma'nolarni kiritish) dir. Misol tariqasida, "apelsin" so'zi **orange** ("to'q sariq") katakroz tufayli rang belgisi sifatida berilgan, ammo hozir u rangga nisbatan "tabiiy" (va metaforik bo'lmagan) sifatida ishlatiladi.<sup>14</sup> Demak, quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin: orange so'zi ham rang ma'nosida ham meva ma'nosida keladi.

Metaforaning o'xshashlikka asoslanganligini tasdiqlovchi nuqtai nazar Blek terminologiyasida taqqoslash nuqtai nazari (comparison view). Blek Shopengauerning geometrik dalil sichqonchanning tuzog'i ekanligi haqidagi fikrini misol keltiradi: "Geometrik dalil sichqonchanning qopqoniga o'xshaydi; ikkala holatda ham va'da qilingan mukofot yolg'ondan boshqa narsa emas: jabrlanuvchi o'zini aldashga yo'l qo'yishi bilanoq, u darhol yoqimsiz kutilmagan hodisaga duch keladi va hokazo ". Qiyosiy nuqtai nazarga ko'ra, metaforik bayonot ekvivalent taqqoslash bilan almashtirilishi mumkin, shuning uchun u metafora o'rnini bosuvchi

---

<sup>14</sup> Макс Блэк. Метафора // Теория метафоры. М., 1990. С. 153-172. (Пер. М.А. Дмитриевской. статьи Max Black . Metaphor. - In: M. Black. Models and Metaphor. Studies in language and Philosophy. Ithaca- London, Cornell University Press, 1962

tushunchaning bir turidir. Blekning o'rnini bosuvchi kontseptsiyasi o'rtasidagi asosiy

farq va qiyosiy nuqtai nazar batafsilroq takrorlashni talab qiladi. Muallif bu farqni tasvirlash uchun "*Richard sher*" (*Richard is a lion*) metaforik iborasidan foydalanadi, uning aytishicha, birinchi nuqtai nazarga ko'ra, bu jumla (Richard is brave) "Richard jasur" bilan taxminan bir xil ma'noni anglatadi, ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra - "Richard (jasoratida) sherga o'xshaydi" (*Richard is like a lion (in being brave)*) kabi qavs ichidagi so'zlar aniq ishlatilmaydi, faqat taxmin qilinadi.<sup>1215</sup> Shuni ta'kidlash kerak, Blekning qiyosiy nuqtai nazari Aristotelning yuqorida keltirilgan metafora ta'rifiga mos keladi: "Metafora — so'zning ma'nosi o'zgargan so'zning turdan turga, turlarni turlarga yoki analogiyaga ko'ra yoki turkumga ko'chishidir".

Blekning uchinchi nuqtai nazari metaforaga interaksionistik nuqtai nazardir (interaction view). Uning ta'kidlashicha, u o'rinbosar va qiyosiy nuqtai nazarning asosiy kamchiliklaridan xoli bo'lib, metafora qo'llanilishining mohiyatiga va ushbu tushunchaning chegaralariga kirib boradi. Blekning interaksionistik nuqtai nazari quyidagi yetti tushunchaga asoslanadi: Metaforik hukm ikki xil sub'ektga ega - asosiy va yordamchi. Ushbu ob'ektlarni global ob'ektlar sifatidagidan ko'ra "tizimlar" (system of things) deb hisoblash ko'pincha foydaliroqdir. Metaforaning mexanizmi asosiy mavzuga yordamchi predmet bilan "bog'langan ta'sirlar" tizimi biriktiriladi. Bu ta'sirlar, odatda, ma'ruzachilarning ongida yordamchi mavzu bilan bog'liq bo'lgan umumiy qabul qilingan assotsiatsiyalardan boshqa narsa emas, lekin ba'zi hollarda bu muallif tomonidan o'rnatilgan nostandart ta'sirlar ham bo'lishi mumkin.

Metafora, odatda, yordamchi sub'ektga nisbatan qo'llaniladigan asosiy mavzu haqidagi mulohazalar turini o'z ichiga oladi. Buning yordamida metafora asosiy mavzuning ba'zi, aniq belgilangan xususiyatlarini tanlaydi, ta'kidlaydi va tartibga soladi va boshqalarni yo'q qiladi. Bu metaforik ibora bilan bir xil turkum yoki

---

<sup>15</sup> Макс Блэк. Метафора // Теория метафоры. М., 1990. С. 153-172. (Пер. М.А. Дмитриевской. статьи Max Black . Metaphor. - In: M. Black. Models and Metaphor. Studies in language and Philosophy. Ithaca- London, Cornell University Press, 1962

tizimga mansub soʻzlarning ma'no oʻzgarishiga olib keladi va bu oʻzgarishlarning ba'zilarida, garchi hammasi boʻlmasa ham, metafora koʻchishi mumkin. (Ikkinchi darajali metaforalarni kamroq diqqat bilan oʻqish kerak.) Umuman olganda, ma'noning majburiy oʻzgarishi haqida hech qanday “retseptlar” yoʻq – baʼzi metaforalarning nima uchun oʻtishini, boshqalari esa yoʻqligini tushuntiradigan umumiy qoida yoʻq.

1962 yilda Blekning yoʻnalishiga oʻxshash bir nechta asarlar paydo boʻldi.<sup>16</sup> D. Bergren Blek belgilagan chiziqni davom ettiradi, muallifning oʻzi metafora - “choʻzish” va ayni paytda “kuchlanish” nazariyasini ifodalaydi, deb hisoblaydi. U mavzuga oid baʼzi yangi yondashuvlarni koʻrib chiqadi, xususan, metafora "markazi" mohiyatini kengroq koʻrib chiqish uchun ochib beradi. Bergren nafaqat soʻz va jumla, balki model, diagramma ham metafora rolini oʻynashi mumkin deb hisoblaydi. Bunda metodni, masalan, matematikani fizikaviy tadqiqotda qoʻllash metafora boʻlib chiqadi. Bergren jismoniy dunyo ob'ektlarini oʻzlashtirishning turli usullarini taqqoslaydi va ular orasida vizual, strukturaviy va moddiy oʻxshashliklarga asoslangan uchta asosiyni ajratadi. Muallif ikkinchi usul ilmiy va falsafiy tadqiqotlar doirasida qoʻllaniladi, deb hisoblaydi.

Shunday qilib, Bergren yangi ma'no solishtirish natijasida emas, balki eski ma'noni “choʻzish” natijasida paydo boʻladi, deb taʼkidlab, u ham Blek kabi hamma narsani “bir obyektning boshqa obyekt nuqtai nazaridan qurish” ga qisqartiradi, shu bilan birga, Bergren metaforik iboralarni yaratishning eng muhim natijasi ham asosiy, ham qoʻshimcha mavzuning bir vaqtning oʻzida oʻzgarishi deb hisoblaydi. Bergren, metaforik obrazlarni shakllantirish jarayonini hisobga olib, ular ma'lum bir ob'ektning tasviri, aqliy tajriba va kontseptual-majoziy sxema kabi elementlarning superpozitsiyasi va sintezi tufayli paydo boʻladi, deb hisoblaydi. Misol sifatida “muzlatilgan ruh” iborasini keltirish mumkin. Biz har doim tom maʼnoda idrok qiladigan tarkibiy elementlar ...

---

<sup>16</sup> Gusev, Fan va metafora, 104-bet

Bergren fanda metafora she'riyatdan kam emasligini, ilmiy amaliyotda qo'llaniladigan modellarning metaforik xususiyatiga e'tibor bermaslik xato manbalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.<sup>17</sup>

Zamonaviy tadqiqotchilar metafora tildagi mavjud iboralarlarni kengaytirishning eng muhim vositalaridan biri, tabiiy til va fan tilini bog'lash usuli deb bilishadi, shuningdek metaforalardan foydalanishning boshqa jihatlarini ham aniqlaydilar va shu bilan ular muammoni hal qilishga harakat qilishadi.<sup>18</sup> G.N.Sklyarevskaya o'z kitobida so'nggi yillarda metaforani o'rganish tendentsiyalari sezilarli darajada oshganini va metaforaning o'n bitta mustaqil yo'nalishga ajratib har biri haqida to'liq ma'lumot beradi.<sup>19</sup>

**1.** Semantic direction (Semantik yoki semasiologik yo'nalish) – bu Lingvistik metaforaning sxematik tuzilishini, metafora ma'nosini hosil qiluvchi semantik jarayonlarni, asl va metaforik ma'nolardagi semalarning nisbatini, metafora hosil bo'lish mexanizmlarini, lisoniy metafora denotatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini, konnotativ elementlar tabiatini o'rganuvchi yo'nalish semasiologik yo'nalish.

**2.** Onomasiological direction (Onomasiologik yo'nalish) – bu metaforani obyektga bog'liqligi, lisoniy birliklarning tildan tashqari obyektlar bilan munosabati nuqtai nazaridan ko'rib chiqish hisoblanadi.

**3.** Epistemological direction (Epistemologik yo'nalish) - tilning yetishmayotgan ma'nolarini shakllantirish va “belgisiz qolish” ga yordam beradigan lingvistik metafora boshqa leksik vositalar bilan birgalikda dunyoni bo'lishda va voqelikni tasvirlashda ishtirok etadi - bunda, birinchi navbatda, kognitiv funktsiyalar lingvistik metaforada namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, metafora tadqiqot obyekti sifatida nafaqat tilshunoslar, balki faylasuflar uchun ham g'oyat jozibali bo'lib chiqdi, chunki u kognitiv faoliyatni tashkil etish usullaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, turli ilmiy nazariyalar tili metafora asosida qurilganligi,

---

<sup>17</sup> Gusev, Fan va metafora, 108-bet

<sup>18</sup> Gusev, Fan va metafora, 104-bet

<sup>19</sup> Sklyarevskaya G.N. «Метафора в системе языка» стр 5

hech qanday bilimni metafora ishtirokisiz o'rganib bo'lmasligi e'tirof etiladi.<sup>20</sup> Metaforani o'rganish zamonaviy tilshunoslikda ko'plab muammolarini, ya'ni yangi bilimlarni ifodalash, tushunish uchun kalit bo'lishi mumkinligi haqida fikrlar bildirildi.<sup>21</sup>

**4. Logic direction (Mantiqiy yo'nalish).** Ushbu tendentsiyaning asosi Aristotel tomonidan ta'kidlangan metaforaning ikkita tushunchani birlashtirish xususiyatidir. Zamonaviy talqinda bu xususiyat metaforaning allaqachon tasvirlangan "fokus" va "ramka" tushunchalarining o'zaro ta'siri sifatida tilga olinadi. Umuman olganda, lingvistik metaforaga mos yozuvlar nazariyasi nuqtai nazaridan o'rganish predmeti lingvistik metaforaning semantik aloqalari va voqelik ob'ektlari va hodisalari o'rtasida mavjud bo'lgan aniq mantiqiy bog'lanishlar o'rtasidagi kuzatilgan nomuvofiqlikdir.

**5. Linguistic direction (lingvistik yo'nalish).** Metaforaning lingvistik xususiyatlarini (morfologik, so'z yasaliş, sintaktik) aniqlash va tasniflash bilan shug'ullanadigan yo'nalish hisoblanadi.

**6. Psycholinguistic direction (psixolingvistik yo'nalish)** – bu nutqni ishlab chiqarish va nutqni idrok etish nazariyasi nuqtai nazaridan lingvistik metaforani o'rganadigan yo'nalish.

**7. Expressiological direction (Ekspressiologik yo'nalish)** - metaforani o'rganish yo'nalishi, uning ekspressiv xususiyatlarini tavsiflash bilan bog'liq.

**8. Linguistic and literal direction (lingvistik va adabiy yo'nalish)** – badiiy metaforaning lingvistik xususiyatlarini tavsiflovchi yo'nalishi.

**9. Lexicological direction (leksikologik yo'nalish)** Lingvistik metaforani lug'at amaliyoti nuqtai nazaridan tavsiflash va loyihalash bilan bog'liq bo'lgan leksikologik yo'nalish.

Zamonaviy olimlarning keng yondashuviga ko'ra, tilda metaforik ma'nosiz so'zlarni topish qiyin. Xullas, tilshunos G.Deycher so'zlarning asl ma'no bo'lib o'zlaridan keyin yuvilib ketishini yozadi, ular mavhum referentlar uchun jonsiz

---

<sup>20</sup> Гусев, Фан ва метафора, 11-бет

<sup>21</sup> Величковский БМ, 1982, 234-бет

atamalarga aylanadi. Bunday soʻzlar koʻp, metaforik maʼnolar tilda oʻzlashtirilib, “oʻlik metaforalar rifi”ni hosil qiladi. Faylasuf A.Lefebvre taʼkidlaydiki, soʻzlar allaqachon soʻzlar kabi metafora va metonimikdir va bularning barchasi barcha soʻzlarga tegishli. J. Lakoff va M. Jonsonlar, metafora kundalik hayotimizga kirib boradi va nafaqat tilda, balki nutqda ham namoyon boʻladi, deb taʼkidlaydilar. Metaforalarni tasniflashning keng tarqalgan usullaridan biri bu maʼnoni koʻchirishga asoslangan tasniflashdir, misollar U.B. Yeats lirikasidan olingan va metaforaning jihatlari kelajakda tarjima ekvivalentligi va tarjima strategiyalari nuqtai nazaridan koʻrib chiqilishi rejalashtirilgan:

a) shakliga koʻra: (kunning koʻzi) - yerdan kelgan quyosh atrofida mayda nozik nurlar bilan aylana shaklida koʻrinadi;

b) joylashishiga koʻra: shox ogʻzi kabi umumiy majoziy maʼnosi va shu kabi misollarda narsalar tashqi va ichki chegarani bildiradi;

c) rangi boʻyicha: kumush boshlar, kulrang soch rangi kumushga oʻxshaydi;

d) hajmi va miqdoriga koʻra: yulduzlar olomoni, olomon - toʻplam, yulduzlar qatori;

e) zichlik darajasiga koʻra: temir tizzalar, temir - qattqlik, mustahkamlik ramzi;

f) harakatchanlik darajasiga koʻra: shijoatli yoshlik, yoshlikning oʻtkinchiligini, ulgʻayish davriga tez oʻtishni tasvirlaydi;

g) tovush tabiatiga koʻra: adashgan dengiz uzra yigʻlagan shamollar, sarson dengiz uzra uvillagan shamollar, shamolning oʻziga xos tovushini ifodalaydi;

z) qiymat darajasiga koʻra: oying kumush olmalari, quyoshning oltin olmalari - bu samoviy jismlarning ahamiyatini koʻrsatadi, ularning qimmatbaho metallar bilan oʻxshashligini koʻrsatadi.

i) vazifasiga koʻra: qaygʻu toʻrlari, shu soʻzlar bilan odamning gʻamdan qutulishi pashshaning toʻrdan chiqishi kabi qiyin ekanligini koʻrsatadi;

j) mavhum predmet yoki buyumning, shaxsning xossalari hosil qilgan taassurotga koʻra: jonli yoz kuni umrbod yoz kunidir, bunday metafora shuni

ko'rsatadiki ba'zan siz bir kun ichida butun hayotdagi kabi ko'p narsalarni boshdan kechirishingiz mumkin.

Metaforaning asosiy vazifasi - obyektни boshqa obyektlar bilan taqqoslab, esda qolarli tasvirni yaratishdir. Natijada, tasvir kuchli, sig'imli bo'ladi va ishlatilgan taqqoslashlarning g'ayrioddiylik tufayli katta ta'sir ko'rsatadi. An'anaga ko'ra, metafora yashirin taqqoslashni aniqlash uchun ishlatiladi, u bir ob'ektning nomini boshqasiga qo'llash orqali hosil bo'ladi, buning natijasida ikkinchisining muhim xususiyati ochiladi

### **1.2-§. Metaforaning lisoniy tahlili va turlari**

Nafaqat jahon uslubshunosligida va leksikologiyasida, balki o'zbek leksikologiyasi va uslubshunosligida ancha mukammal ishlanishi lozim bo'lgan masalalardan biri metaforadir. Metafora ancha murakkab ma'no ko'chish hodisasi hisoblanib, ayni zamonda ham tilshunoslar, ham adabiyotshunoslar diqqatini o'ziga jalb etib keladi. Bu ma'no ko'chishga tilshunoslar ko'p ma'noli so'zlardagi semema va semalarning xarakterli xususiyatlarini ochish, ko'chma ma'no hosil qiluvchi hodisalar tahlili nuqtai nazaridan yondoshmalar, adabiyotshunoslar esa polisemantik so'zlardagi tasvirning turli vositalar (o'xshatish, sifatlash, majoz istiora)ni yuzaga keltiruvchi omillar deb biladilar. Har ikkala yo'nalishda ham maqsad bitta, u ham bo'lsa, so'zning ko'p ma'noligi va undagi uslubiy imkoniyatlarni o'rganishdir. So'zning ko'p ma'noliligini o'rganish, avvalo, leksik uslubiyat uchun muhim rol o'ynaydi. Chunki, bir so'zning o'zida turli xil ma'noning bo'lishi uchun og'zaki va yozma nutqda qo'llashda uslubiy bo'yog'iga, ma'nosiga e'tibor berishni talab qiladi. Shu boisdan ma'no ko'chish ham sinonimiya, omonimiya va boshqa leksik vositalar singari hazil, mutoyiba, kulgi va turli so'z o'yinlarini yuzaga keltiradi. Bunday paytlarda so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosi to'qnashtiriladi, natijada kutilmagan yangi ma'no hosil bo'ladi. So'zlarning ana shu nozik ma'no ottenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi. Leksema – tilning asosiy birligi. U bizni qurshab turgan olam unsurlarini nomlash uchun xizmat qiladi. Leksema faqat nomlash funksiyasi bilangina cheklanib qolmay, olam haqidagi

bilimlarimizni kelajak avlodlarga yetkazish (kumulyativ vazifa), anglash (perseptiv), tinglovchiga taʼsir etish (ekspressiv) – vazifasini ham bajaradi. Bu esa leksemaning naqadar koʻp qirrali hodisa ekanligini koʻrsatadi. Leksema va tushuncha oʻzaro dialektik munosabatda boʻlsa ham, lekin har bir yangi tushuncha alohida soʻz bilan ifodalanavermaydi. Agar har bir tushunchaga yangi soʻz qoʻllay olganimizda edi, til oʻzining kommunikativ funksiyasini xiralashtirgan, yoʻqotish darajasiga olib borgan boʻlar edi. Tilning xarakterli xususiyati shundaki, u xotirada saqlash mumkin boʻlgan sanoqli birliklar bilan cheksiz tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega. Shuning uchun ham yangi paydo boʻlgan tushunchalar, asosan, u yoki bu tilning amal qiladigan modellari asosida mavjud birliklar yordamida ifodalanadi. Soʻzni koʻchma maʼnoda qoʻllash ham yangi tushunchani tilda mavjud birliklar yordamida ifodalashning bir yoʻlidir. Rustamjon Oʻrinov oʻzbek tilida soʻz maʼno koʻchish turlari va koʻchma maʼnoli soʻzlar qaysi maʼno asosida koʻchayotganligiga qarab turlarga boʻlinishini haqida quyidagi fikrlarni izohlab oʻtgan. Uning fikricha, baʼzi soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolari boʻladi. **Oʻz maʼno** - soʻzning gapdan yoki nutqdan tashqarida anglatgan maʼnosi: quloq – eshitish aʼzosi. **Koʻchma maʼno** - soʻzning nutq tarkibida anglatgan maʼnosi boʻlib, uning qanday maʼnoda ekanligi nutqdagi boshqa soʻzlar yordamida aniqlanadi: *qozonning qulogʻi, radioning qulogʻi*. Koʻchma maʼnoli soʻzlar qaysi maʼno asosida koʻchayotganligiga qarab turlarga boʻlinishini aytib oʻtgan.

Metafora (yunoncha metaphora – koʻchirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular oʻrtasidagi maʼlum oʻxshashlik asosida koʻchishidir. Masalan, narsa va hodisalar oʻrtasidagi oʻxshashlik turli asosda boʻlishi mumkin:

1. Ikki predmet oʻrtasidagi shakliy oʻxshashlik. Masalan: *odam qulogʻi (oʻz maʼnosida) - qozonning qulogʻi (koʻchma maʼnoda), mushukning ogʻzi (oʻz maʼnosida) - tandirning ogʻzi (koʻchma maʼnoda)*. Tandırning ogʻzi birikmasida ogʻiz soʻzining maʼnosi odam yoki hayvon ogʻziga tashqi oʻxshashlik asosida vujudga kelgan. Ikki predmet qayerda joylashishi boʻyicha oʻxshashlik. Masalan: *itning dumi – samolot dumi, qushning qanotlari – samolot qanotlari*



Metafora yo‘li bilan ma‘no ko‘chishiga predmetlar uchun umumiy belgi tushunchada saqlanadi. Metafora narsa, belgi, harakat o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlikka asoslanadi:

1. Narsalar o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlikka misollar: *to‘nning yoqasi (o‘z manosi) - daryoning yoqasi (ko‘chma ma‘no), ko‘ylakning etagi (o‘z ma‘nosi) - tog‘ning etagi (ko‘chma ma‘no);*

2. Belgilar o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashliklarga misollar: *qattiq yong‘oq (o‘z ma‘nosi) - qattiq sovuq (ko‘chma ma‘no), qattiq uyqu (ko‘chma ma‘no); yumshoq non (o‘z ma‘nosi) - yumshoq ovoz (ko‘chma ma‘no), Uyi supurilgan, toza. (o‘z ma‘nosi) - do‘stimning qalbi pok, toza (ko‘chma ma‘no).*

3. Harakat: *Mungli kuy yurakni tirnar edi, yo‘l ochmoq, Otam yetimlarni boshini siladi, bola onasining oldiga tushib pildirab ketdi. Do‘stlarim bilan qalinlashib ketdim.*

Metafora asosida ma‘no ko‘chishining asosiy yo‘llari quyidagilar:

- 1) **odamning tana a‘zolari nomlari:** *shishaning og‘zi, yer yuzi, choynakning burni, kitobning beti, ko‘chaning boshi...*
- 2) **kiyimlar va ularning biror qismiga (yoqa, etak).** *tog‘ning etagi, daryoning yoqasi, eshikning tugmasi... Masalan , qishlog‘imiz tog‘ning etagida joylashgan. (H. G‘) - Mana senga olam olam gul, etagingga siqqanicha olgin! yoki boshqa misol: Uyimiz daryo yoqasidadir. Lola ko‘ylagining yoqasiga nimanidir ilganini sezmabdi.*
- 3) **hayvon, parranda, va hasharotlarning biror a‘zosi** (qanot, dum, tumshuq, shox). *Futbolchilarimiz chap qanotdan hujum uyushtirdilar. Varrakning dumi osmonda chiroyli tebranardi.*
- 4) **o‘simlikning va uning qismi (chinor, tikan, ildiz, tomir, obinovvot (qovun navi), kampirchopon (qovun navi), itog‘iz (gul turi), karnaygul(gul turi)**
- 5) **Qurol yoki boshqa predmet nomlari:** kamon, o‘q, tosh, latta...
- 6) **Harorat bildiruvchi so‘zlar:** sovuq, issiq, o‘t...

7) **Tabiat hodisalari:** to‘fon, to‘lqin...

8) **Belgi bildiruvchi so‘zlar:** achchiq, shirin, asal, zahar...

9) **Qimmatbaho jism nomlari:** oltin, kumush...

10) **Afsonaviy-diniy tushunchalarni bildiruvchi so‘zlar:** azroil, jannat, do‘zax...

Odamga xos xususiyatlar, harakat-holatlar jonli va jonsiz narsaga ko‘chirilganda ham metafora hosil bo‘ladi: *Bulutlar orasidan quyosh kulib qaradi*. Jonli va jonsiz narsalarga xos xususiyatlar, harakat va holatlar odamlarga ko‘chirilsa ham metafora hosil bo‘ladi: *Bolalar yopishavergach xaltani ochishga majbur bo‘ldida, labini burib vaysay boshladi*. Quyidagi ismlar ham metafora asosida qo‘yilgan: *Yo‘lbars, Bo‘riboiy, Qoplonbek, Burgutbek, Lochinoy, Gulnora, Gulchehra, Feruza, Yoqutoy, Asalxon, Oyxon, Arslon, Bubur, Charos, Ozoda, Gilosxon*. Shomaqsudov “Hozirgi O‘zbek tili” kitobida bu so‘z ma’nolarini troplar deb ham kiritadi. Trop deb bir narsaning nomini, belgisini boshqasiga ko‘chirish yoki nutqda so‘z va iboralarning ko‘chma ma’nodida ishlatilishiga aytiladi. Qandaydir xususiyati bilan bir-biriga yaqin ikki shaxsni, tushunchani, narsani, hodisani va ulaming belgisini qiyos qilish, o‘xshatish troplarga asos qilib olinadi. Bunda ular haqida aniq tasavvur paydo bo‘ladi. Metafora nutqqa obrazlilik, ckpressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar o‘rtasida o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma’nodir.

Metafora ko‘chma ma’no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda — **istiora** deb yuritilgan. Metafora asosida nom ko‘chishi – narsa, belgi yoki harakatga xos atamaning (so‘zning) o‘zaro o‘xshashligi bo‘lgan boshqa belgi, narsa, harakat haqidagi tushuncha uchun ham qo‘llanishi, shu tushunchaning ham nomiga o‘tishi (aylanishi)dir. Metafora asosida nom ko‘chishi predmet, belgi, harakat, holatlarning keng ma’nodagi o‘xshashligiga asoslanadi. Asos konkret, abstrakt bo‘lishi mumkin. Metafora tuzilishiga ko‘ra sodda va kengaygan, badiiy hamda lingvistik

metaforalarga ajratilad<sup>22</sup>. Lingvistik metafora ekspressiv bo‘lmagan atama, badiiy metafora ekspressivdir. Ilmiy adabiyotlarda metaforani til va nutq hodisalari sifatida ikki turga ajratib ko‘rsatadilar. Ko‘chma ma‘nolarni atroflicha tadqiq etgan M.Mirtojiev metaforalarning denotat o‘xshashligi belgisiga ko‘ra uch guruhga bo‘ladi<sup>23</sup>: 1) oddiy metafora; 2) personifikatsiya (jonli obyekt jonsiz obyektни o‘ziga nomdosh qilib olishi); 3) sinesteziya (sezgi orqali xis etiladigan ikkinchi obyektни nomdosh qilib olishi). Bunda oddiy metafora belgilarga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiya – jonlantirish orqali qiyoslash, sinesteziyada esa subyektiv holatda qiyoslash o‘xshatish uchun asos bo‘ladi. Metaforaga har doim funksional jihatdan qarash kerak. Bunda, bir tomondan, uning shoirga dilidagini ifodalashga, ikkinchi tomondan, she‘rxonga ularni his qilishga qanchalik yordam berayotganini diqqat markaziga qo‘yish muhim. Zero, metafora ijodiy faoliyat mahsuli ekan, xuddi badiiy asar yoki obraz kabi ikkala tomonni, ijodkor va o‘quvchini birdek nazarda tutishni taqozo etadi.

Metafora tuzilishiga ko‘ra ikki xil: **sodda va kengaygan** bo‘ladi. Sodda metafora birgina so‘z, kengaygan metafora esa ikki yoki undan ortiq so‘zlar bilan ifodalanadi. Masalan: *a’lo (besh baho)*, *saltanat (podshohlik)*, *ko‘k (osmon)*, *xo‘roz (mard odam)* kabilar sodda metafora bo‘lsa, *bahor elchisi (boychechak)*, *ilhom manbayi (hayot)*, *Nizomiyning Vatani (Ozarboyjon)* kabilar esa kengaygan metaforalardir.

Metafora ko‘chma ma‘no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda —istiora deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: **lingvistik metafora va badiiy metaforalar**. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog‘liq hodisa hisoblanadi. Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo‘yoq, ekspressivlik binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqatgina ma‘lum bir so‘zning ma‘no doirasi kengayadi

---

<sup>22</sup> Қобулжонов Г.К. Метафоранинг системавий лингвистик талқини: Филол.фанлари номзоди ... автореф. –Тошкент, 2000. –Б. 9.

<sup>23</sup> Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1973.- № 4. – Б. 33-37;. Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981; Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва дабиёти. – 1964. - № 4.– Б. 34-36

hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: *odamning oyog‘i, odamning ko‘zi (human foot, human eye) – uzukning ko‘zi (the eye of the ring), ko‘ylakning etagi– tog‘ning etagi ( the hem of the shirt - the hem of the mountain) kabi.*

Agar metafora biror shaxsning, narsaning doimiy nomiga aylanib qolgan bo‘lsa, u tilshunoslikning muammosiga aylanadi, muayyan bir matnda ishlatilib, matndan tashqari holatda shu shaxsga, narsaga nisbatan qo‘llanilmasa, badiiy metaforaga misol bo‘ladi. Masalan, *go‘zal — sifat, Go‘zal — ot, ko‘k — rang, ko‘k — osmon, tosh va ko‘mir — tabiat jinslari, toshko‘mir — yoqilg‘i* kabi so‘zlarning xususiyatlari tilshunoslikda o‘rganiladi. Quyidagi she‘riy parchada badiiy metafora ishlatilgan:

*Na ko‘kning fonari o‘chmasdan,*

*Na yulduz sayr etib ko‘chmasdan,*

*Na ufq o‘ramay yoqut-zar,*

*Na bulut silkitmay oltin par,*

*Tong kulmasdan burun JontemirQuyuyq bir zavq bilan turadi...  
Po‘lat otlarini o‘ynatib, Ekin maydoniga yuradi (Uyg‘un)*

Bu misollarda badiiy metaforalar: *fonar (oy), yoqut-zar (shafaq), oltin par (quyosh nuri), Po‘lat otlarini (traktorini)*dir.

Metaforaga har doim funksional jihatdan qarash kerak. Bunda, bir tomondan, uning shoirga dilidagini ifodalashga, ikkinchi tomondan, she‘rxonga ularni his qilishga qanchalik yordam berayotganini diqqat markaziga qo‘yish muhim. Zero, metafora ijodiy faoliyat mahsuli ekan, xuddi badiiy asar yoki obraz kabi ikkala tomonni, ijodkor va o‘quvchini birdek nazarda tutishni taqozo etadi. Demak, metaforaning she‘riyatdagi o‘rni va ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning she‘riy matnda bajarayotgan funksiyalarini ko‘zdan kechirish zarurdir. Shulardan kelib chiqib, ishda metaforaning poeziyada bajaradigan funksiyalaridan ayrimlari

A.Oripov sheʻriyati misolida oʻrganildi. Jumladan, “*Chuvaladi oʻylarim sensiz*” sheʻri misolida metafora inson qalbidagi atash imkoni boʻlmagan holatlarni tasvirlab koʻrsatish, shoir uchun his-tuygʻuni ifodalash, sheʻrxon uchun esa qayta his qilib koʻrishga imkon yaratishi koʻrsatildi. Poetik metafora – obraz, u lisoniy metafora kabi atashga emas, ifodalashga qaratilgandir. Zero, poetik metafora soʻz yoki soʻzlardan tarkib topuvchi matn boʻlgani holda, unda ifoda soʻz (yoki soʻz birikmasi, gap, matn) vositasida emas, balki uning yordamida yaratilgan obraz orqali amalga oshadi. Sheʻrdagi “*chuvalmoq*” feʻl-metaforasi lirik qahramon ruhiyatida kechib turgan noaniqlik (oʻylarining tagiga yetolmaslik, ziddiyatli oʻylar girdobida bir xas kabi chirpirak boʻlish) holatini aniq ifoda etadi. Metafora holatni atayotgani yoʻq, jonli tasvirlamoqda. Agar metaforik ifodalash oʻrniga holat atalganida, lirik holatni obrazli tasavvur qilish qiyin boʻlur edi. Ikkinchi tomondan, atash aniqlikni talab qiladi. Lirik holatni esa, birinchidan, aniq atashning imkoni yoʻq, ikkinchidan, har qanday aniqlik holatni chegaralab qoʻyadi. Natijada shoir uchun ifoda imkonlari, sheʻrxon uchun tasavvur imkonlari cheklanib qoladi. Metafora esa, aksincha, ayni shu imkonlarni kengaytiradi. Shu jihati bilan metaforik ifoda ijod jarayoni uchun ham, oʻqish jarayoni uchun ham birdek muhim ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikning oʻrganilish obyekti tabiati ikki ziddiyatli jihatlar munosabatida shakllanishi masalasi ancha qadimdan qoʻyilib kelingan boʻlsa-da, bu qarashning sistemalashgan va nazariy asoslangan ifodasi XX asrda paydo boʻldi va F.de Sosyur nomi bilan bogʻlanadi. Til ikki tarkibiy qism – lison va nutqni qamrab oladi.

Lison muayyan jamiyat aʻzolari uchun umumiy va tayyor qolip va sxemalar tizimi boʻlib, ijtimoiy-chekli hodisadir. Nutq lisoniy xilma-xil yuzaga chiqish usullari boʻlgan shaxsiy, moddiy hodisadir. Har qanday tilga xos hodisa lisoniy va nutqiy jihatlariga ega boʻladi. Nutqiy jihat kuzatish uchun qulay va bevositadir. Ammo shu bilan birga oʻzgaruvchan va hisobsiz hamdir. Uning asosida turgʻun va chegaralangan lisoniy hodisa yotadi. Tilshunoslik fanining tarixiga nazar tashlasak, unda til hodisalarining birinchi jihatini oʻrganish anʻanasi kuchliroq ekanini koʻramiz. Jumladan, metaforaning oʻrganilishida ham. Uning ikkinchi jhati lisoniy

asosini o'rganish anchadan beri mavjud va dolzarbdir. Har qanday hodisa u xoh obyektiv, xoh subyektiv bo'lsin, tashqi kuzatish imkoni bo'lgan jihati ortida uning mohiyati yotadi va u ko'zdan yashirindir. O'tgan davr mobaynida metaforaga ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib, shu soha bilan shug'ullanganlarning hammasi, albatta, Arastu ta'rifini bir eslab o'tadilar, shu bilan birga, bu ta'rifda muayyan chalkashliklar borligini qayd etadilar. Metafora asosida o'xshashlik turishi masalasida shu soha bilan shug'ullanayotganlarning hammasi deyarli hamfikr. Ammo ana shu o'xshatishning metaforadagi o'rni va mustaqil ko'rinishi borasida fikrlar ajralib ketadi.

*«Metafora qisqargan o'xshatishdir»* (A.Potebnya). Ya'ni o'xshatishga xos bo'lgan *“kabi, xuddi, aynan, o'xshamoq»* va hokazo so'zlar tushirilsa, metafora yuzaga keladi: *U gul kabi go'zal va nafis edi // U go'zal va nafis edi.*

O'zbek tilshunosligida komponent-semik tahlilga e'tibor rivojlana boshlagach, metafora tabiatini o'rganishga ana shu tahlil usullarini tadbiiq etishga intilishlar yuzaga kela boshladi. Shu xil yo'nalish namoyondalaridan biri Z.Tohirov metaforani leksema sememasining pragmatik semasi sifatida baholaydi. Shuningdek, metafora va o'xshatish orasidagi farqni (uslubda) shakldagina ko'radi. Har qanday badiiy vositalar lisoniy vositalar yordamida moddiylashadi. Shuning uchun ham metaforani lingvistik nuqtai nazardan o'rganish zarurdir. Ayniqsa, metaforaga ham boshqa lingvistik hodisalar kabi sistemaviy yondashish, uning sistemaviy tabiatini ochish muhim vazifa sanaladi. Binobarin, metaforik munosabat ma'lum sharoitda, ma'lum voqea-hodisani "tasvir etishda ikki predmet yoki hodisa o'rtasidagi umumiylikka asoslangan holda belgilanadi. Ular o'rtasidagi umumiy ko'rinishlar, hislatlar biridan ikkinchisiga ko'chiriladi. Bunda asosan obrazli tushunchalar yuzaga keladi. Masalan: *Arslonov xafa edi!... Uning xayolida allaqanday ko'kish toshlar qalashib yotgan. Ko'ktoshda bir vulqon portlashga hozirlanayapti-yu, oldi olinmasa, dahshat yuz beradigandek!..*<sup>24</sup>. *Shahar*

---

<sup>24</sup> Sh.Xolmirzayev. «Qil ko'prik», 32-bet

*osmonida aylangan qorabulutlar tarqab, baayni quyosh chiqadi. Qon, dahshat isi kelib turgan shaharda to'y-tomosha boshlanib ketadi.*<sup>25</sup>

Ushbu matnlarda *vulqon, qora bulut, quyosh* kabi soʻz va soʻz birikmalari metaforik munosabatni ifodalash uchun xizmat qilgan. Aslida, urush va tinchlik maʼnolari ifoda etilgan hamda fikrga badiiy tus berilgan. Badiiy nutqqa esa obrazlilik va oʻta kuchli emotsiya ifodasi oʻz taʼsirini koʻrsatgan. Yovvoyi qushlar, uy parrandalari nomlarini anglatuvchi koʻpgina leksemlar ham metaforik maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiladi. Koʻpgina holatlarda qushlarga xos baʼzi bir salbiy xatti-harakatlardagi maʼno ifodalashda metaforik munosabat yuzaga keladi. Bunday holatda maʼnoda ekspressiv-emotsionalik yanada kuchayadi hamda badiiy taʼsirchanlik oshib boradi. Bunday qoʻllanishlar ham yozuvchi ijodi uchun xarakterli boʻlib, buni quyida berilgan matn orqali ham anglab yetish mumkin: “ -Chiq. - Qayum kameraga koʻz solib, iziga qaytdi. - Yerdan yotibsan. Senga koʻrpacha solib bergan, edim... E, qurib ket! Sigʻsa ichingda! Oʻzing tuppatusuk yigitsan!... E! Xamrohing qargʻa boʻlsa, yeganing axlat boʻladi...”<sup>26</sup> Keltirilgan matnda *qargʻa* soʻzi semantikasida salbiy maʼno ifodasi mavjud boʻlib, hamrohining yomon ekanligiga ishora qilingan. Demak, bu oʻrinda qahramonning tinglovchiga munosabatining salbiyligi ushbu metafora orqali ochilgan. Ayni paytda, soʻzlovchining bu holatdan achinayotganligi, hamrohining oʻziga ham yomonlik olib kelayotganligini taʼkidlash ishorasi bor.

Koʻchma maʼnolarni atroflicha tadqiq etgan M.Mirtojiyev metaforalarning denotat oʻxshashligi belgisiga koʻra uch guruhga boʻladi<sup>27</sup>:

- 1) oddiy metafora;
- 2) personifikatsiya (jonli obyekt jonsiz obyektga oʻziga nomdosh qilib olishi);

---

<sup>25</sup> Sh.Xolmirzayev.Qil koʻprik, 57-bet

<sup>26</sup> Sh.Xolmirzayev.Ogʻir tosh koʻchsa, 134-bet

<sup>27</sup> Миртожиев М. Лингвистик метафоралар таснифи. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1973. - № 4. – Б. 33-37; Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981; Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1964. - № 4.– Б. 34-36

3) sinesteziya (sezgi orqali xis etiladigan ikkinchi obyektни nomdosh qilib olishi).

Bunda oddiy metafora belgilarga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiya – jonlantirish orqali qiyoslash, sinesteziyada esa subyektiv holatda qiyoslash o‘xshatish uchun asos bo‘ladi. Metaforaga har doim funksional jihatdan qarash kerak. Bunda, bir tomondan, uning shoirga dilidagini ifodalashga, ikkinchi tomondan, she‘rxonga ularni his qilishga qanchalik yordam berayotganini diqqat markaziga qo‘yish muhim. Zero, metafora ijodiy faoliyat mahsuli ekan, xuddi badiiy asar yoki obraz kabi ikkala tomonni, ijodkor va o‘quvchini birdek nazarda tutishni taqozo etadi.

I.R.Galperin esa “English Stylistics” nomli kitobida metaforaning ikki turi haqida fikrlarini bayon qilgan. Metaforalar kutilmaganlik darjasiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: Genuine metaphors (haqiqiy metaforalar) va trite or dead metaphors (oddiy yoki o‘lik metaforalar). Mutlaq kutilmagan, ya’ni mutlaqo oldindan aytib bo‘lmaydigan metaforalarga *g e n u i n e* metafora deyiladi. Haqiqiy metaforalar harakatdagi tilga tegishli deb hisoblanadi, i. e. nutq metaforalari. Nutqda ko‘p qo‘llaniladigan va shuning uchun ham ba’zan lug‘atlarda tilning ifodali vositasi sifatida mustahkamlab qo‘yilganlar *t r i t e* metafora yoki o‘lik metaforadir. Shuning uchun ularning bashoratliligi aniq. Trite metaforalar til tizimiga, ya’ni tilga tegishli bo‘lib, odatda lug‘atlarda til birliklari sifatida o‘rnatiladi. Bu erda oddiy deb hisoblangan metaforalarga misollar keltiramiz. Ular vaqt o‘tishi bilan eskirgan va tilga yaxshi surtilgan: *‘a ray of hope’, ‘floods of tears’, ‘a storm of indignation’, ‘a flight of fancy’, ‘a gleam of mirth’, ‘a shadow of a smile’*.<sup>28</sup>

Rus lingvisti Irina Vladimirovna Arnold esa metaforaning turlarini quyidagi prinsiplarga asosan keltirib o‘tgan. Pragmatik ta’sirga ko‘ra metaforalar ikkiga bo‘linadi: trite (dead) va genuine (original) metaphors. Trite (dead) metaphors ya’ni o‘lik metaforalar lug‘atlarda berilgan va mustahkamlangan. Ular ko‘pincha oddiy va g‘alati eshitiladi. Misollar: *leg of a table, mouth of a river, needle’s eye, bottle’s*

---

<sup>28</sup> Galperin I.R. “English Stylistics” Moscow 141-143



*neck, a ray of hope, floods of tears, seeds of evil, a flight of imagination, to prick up one`s ears, the apple of one`s eye, to burn with desire, “kicking the bucket”; melting pot”; and “body of work.”*

Genuine (original) metaphors ya’ni haqiqiy , original metaforalar lug‘atlarda mustahkamlanmagan. Ular nutqda so‘zlovchilarning tasvvuri bilan yaratiladi. Ular yangi, ifodali va kutilmagan va oldindan aytib bo‘lmaydigan kabi eshitiladi. Masalan, *Some books are to be tasted, others swallowed and some few to be chewed and digested.* Stilistik potensial darajasiga ko‘ra metaforalar 3 ga nominational, cognitive va imaginative (figurative) metaforalarga bo‘linadi. Nominational metaphors onyektiv dunyoning yangi obyektlari yoki hodisalarini nomlash uchun mo‘ljallangan: *the foot of the hill.* Cognitive metaphors predmet boshqa predmetga xos sifatni olganida hosil bo‘ladi. Masalan: *one more day has died.* Metaforalarning eng ifodali turi bu imaginative (xayoliy) metaforalar hisoblanadi. Metaforalar tuzilishiga ko‘ra metaforalar ikkiga simple (elementary) - sodda va prolonged (sustained or extended) – kengaygan metaforalarga bo‘linadi.<sup>29</sup> Sodda metaforalar bitta so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘ladi. Masalan: *The leaves was falling **sorrowfully**. You can` t put out my **flame**. Sometime too hot **the eye of the heaven** shines.*

Simple metaphors ya’ni soda metaforalar quyidagi so‘z turkumlari bilan izohlanib kelinadi:

- 1) nouns (otlar);
- 2) verbs (fe`llar): *The dust **danced** and was golden (Oscar Wilde);*
- 3) adjectives (sifat): *The **human** tide was rolling westward*
- 4) adverbs (ravish): *the leaves were falling **sorrowfully**.*

Kengaytirilgan metafora esa bitta tasvirni yaratuvchi oddiy metafora zanjiri bilan ifodalanadi va bir nechta jumlarlar, paragraflar, boblar darajasida amalga

---

<sup>29</sup> <https://studylib.net/doc/7461584/1.-arnold-defines-stylistics-as-a-branch-of-linguistics--...>

oshiriladi. Misollar: *Mr Dombey's cup of satisfaction was so full at this moment that he felt he could afford a drop or two of its contents, even to sprinkle on the dust in the bypath of his little daughter. (Dickens) In a cavern under is fettered the thunder, It struggles and howls at fits (P. B. Shelly Cloud) All the world's a stage, And all the men and women merely players: They have their exits and their entrances; And one man in his time plays many parts ... (W. Shakespear As you like it)*

N.D Arutyunova tomonidan taklif qilingan an'anaviy tasnifga ko'ra., metafora quyidagilarga bo'linadi:

1) nominativ, bir tavsiflovchi ma'noni boshqasiga almashtirish va omonimiya manbai bo'lib xizmat qilishdan iborat;

2) majoziy ma'nolarni va sinonim til vositalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan majoziy metafora;

3) predikativ so'zlarning mosligini o'zgartirish (transfer ma'nosini) siljishi natijasida vujudga keladigan va ko'pburchak yaratadigan kognitiv metafora.

Filipp Uilayt metaforaning semantik harakatiga - tarqalishiga yoki bog'lanishiga qarab ikki turini aniqlaydi: epiforalar va diaforalar. Epiforalar uchun asosiysi ekspresif funktsiya (xayolga murojaat qilish), diaforalar uchun taklif funktsiyasi (sezgi intilishi). Jorj A. Miller metafora tasnifida quyidagilarni ta'kidlaydi:

1) nominal metafora;

2) predikativ metafora;

Rozental D.E. va Telenkova M.A. uch xil metafora mavjudligini tan olish:

1) ob'ektlar yoki hodisalarning bitta umumiy xususiyatga ko'ra yaqinlashuvi asosida qurilgan oddiy metafora.

2) o'xshashlikning turli xil assotsiatsiyalari asosida qurilgan batafsil metafora.

3) leksik metafora (o'lik, toshlangan, o'chirilgan), bunda asl metafora uzatish endi sezilmaydi.

Metafora tushunilishi, boshqa bir qator lingvistik hodisalardan yakkalanib, tavsiflanishi bilanoq, uning ikki tomonlama mohiyati to'g'risida darhol savol tug'ildi: til vositasi va she'riy shaxs bo'lish. Tilshunoslikka she'riy metafora bilan qarshi chiqqan birinchi bo'lib bu tilning umumiy metaforasini ko'rsatgan S.Balli edi. Endi ikki xil metafora - badiiy va lingvistik metaforalar borligi haqida hech kim bahslashmaydi.

Sh.Balli va undan keyin Sklyarevskaya G.N. metaforalarning ikki turi - badiiy va lingvistik mavjudligini ajratib turadi. "Badiiy metafora" atamasining mazmuni yanada kengroq bo'lib, u boshqa atamalarda aks etgan barcha xususiyatlarni o'z ichiga olganga o'xshaydi: individual ijodiy xarakter, vaqti-vaqti bilan (o'ziga xoslik sifatida), ma'lum bir trop turiga mansublik va boshqalar. maqsadli va ongli estetik izlanishlar, badiiy metafora poetikada uning asosiy estetik kategoriyalaridan biri sifatida o'rganiladi. Tilshunoslik metaforasi o'z-o'zidan paydo bo'lib, tilning mohiyatiga singib ketgan va lingvistikada leksikologiya, semasiologiya, nomzodlar nazariyasi, psixolingvistika, lingvistik stilistika bilan bog'liq murakkab muammo sifatida o'rganiladi.

### **1.3-§. O'zbek tilida metafora va unga yondosh hodisalar**

Ma'no ko'chish turini matnda yoki gapda topishda bir narsaning nomini boshqa narsaga nisbatan qo'llashga *qanday munosabat* sabab bo'layotganini topish talab qilinadi. Keling, biz o'rganadigan munosabatlar qaysilar ekanligini bilib olaylik:

- 1) tashqi o'xshashlik munosabati;
- 2) aloqadorlik munosabati;
- 3) butun va qism munosabati;
- 4) vazifadagi o'xshashlik munosabati.

Mazkur munosabatlarning fanda alohida-alohida nomlari bor va ular ma'no ko'chishining *turlari* hisoblanadi. O'zbek tilida ma'no ko'chishning turlari quyidagilar: metafora (tashqi o'xshashlik asosida munosabati), metonimiya (aloqadorlik munosabati), sinekdoxa (butun va qism munosabati) va vazifadoshlik (vazifadagi o'xshashlik munosabati).

Metaforaga berilgan ta'rif uning tabiatini ko'rsatib bergan bo'lsa-da, amalda metaforani ajratib olish ancha qiyin. Metaforaga yondosh va o'xshash hodisalar anchagina bo'lib, ko'pincha ular metafora deb atalaveradi. Metaforaning yondosh hodisalardan farqi uni shu xil hodisalar bilan qiyosan olib o'rganganda ochiladi. Shuning uchun biz quyida turli tilshunosh olimlarning metaforaning turli yondosh hodisalar bilan munosabati haqidagi qarashlarini va keltirib o'tgan misollarini ko'rib chiqamiz va o'zimiz ham misollar keltirib o'tamiz.

Rustamjon O'rinov so'zlarda ma'no ko'chish turlari haqida quyidagi fikrlarni izohlab o'tgan: ba'zi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari bo'ladi. O'zbek tilida ko'chma ma'noli so'zlar qaysi ma'no asosida ko'chayotganligiga qarab quyidagi turlarga bo'linishini aytib o'tgan:

- 1) metafora
- 2) vazifadoshlik
- 3) metonimiya
- 4) sinekdoxa.

Ayrim manbalarda kinoya va tag ma'noni ma'no ko'chish turlari sifatida nazarda tutilganini ham ko'rishimiz mumkin. Shavkat Rahmatullayev esa metafora ko'chimining boshqa turlari bilan sinkretik ishlatila olish imkoniyatiga e'tibor qaratadi: metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa va hokazo. *Samolyotning qanoti* metaforik birikmasida qush qanotiga nafaqat vazifa, balki shaklan ham o'xshaydi. Shuning uchun bu kabi holatlarni funksional-metaforik ko'chirish desa bo'ladi. Muhabbat Qurbanova va Ma'rufjon Yo'ldoshevlarning "Matn Lingvistika" si kitobida quyidagi nazariy ma'lumotlarni guvohi bo'lishimiz mumkin: Ko'chimlar deyarli ko'pchilik adabiyotlarda "troplar" atamasi ostida o'rganilgan. So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan

troplarga metafora, metonimiya va ironiya kiradi. Qolganlari tasvbiy vositalar esa ko‘chmlari ko‘rinishlari sifatida beriladi: simvol, jonlantirish, epitet va apafora - metaforaning ko‘rinishlari, perifraza, sinkdoxa va allegoriya, epitet – etonimiyaning, antifraza va sarkazm – ironiyaning ko‘rinishlaridir<sup>30</sup>. Endi esa ularning har biri haqida to‘liq ma’lumotlarni va keltirilgan misollarni birma – bir ko‘rib chiqamiz.

**Metafora va vazifadoshlik.** Narsa va hodisalar o‘rtasidagi vazifaviy bir xillik asosida birining nomi ikkinchisining ifodalanishi asosida ma’no ko‘chishiga aytiladi. Masalan: *Odamning oyog‘i* (o‘z ma’nosida) - *Stolning oyog‘i* (ko‘chma ma’noda); *Kamon o‘qi* (o‘z ma’nosida) - *Zambarak o‘qi* (ko‘chma ma’noda) - *Raketa o‘qi* (ko‘chma ma’noda); *Ko‘chalarni chiroqlar yopyorug‘ qilib turibdi. Chiroq piligini pasaytirdi.* Yuqoridagi ikki gapda qo‘llanilgan chiroq so‘zining ma’nosiga e’tiborimizni qaratsak, u bir xil vazifani bajaruvchi ikkita bir biriga o‘xshamaydigan narsalarni ifodalayotganining guvohi bo‘lamiz. Birinchi gapda “*elektr toki orqali yorituvchi lampochkani*, ikkinchi gapda esa “*kerosinga pilik solish vositasi* bilan yorituvchi, asos va shisha qismlardan tashkil topgan asbob”ni bildiradi. Bu asboblar shakliga ko‘ra bir- biriga o‘xshamaydi, makon va zamonda ularning aloqadorligi ham yo‘q, lekin har ikkalasi ham yoritish vazifasini bajaradi. Ana shu vazifaviy bir xillikka ko‘ra ilgari yog‘ga pilik tekkizish orqali yoritiladigan shishasiz, ochiq asbob nomi keyinchalik asos qismga shisha o‘rnatilgan yoritgich asbobni, keyinroq esa elektr tokdan foydalanishga o‘tilgandan so‘ng lampochkalarni ham ifodalash uchun qo‘llaniladi. Natijada chiroq so‘zi birbiriga o‘xshamaydigan xilma xil yorituvchi vositalarga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Bu usul bilan ma'no ko‘chish bir tomondan metaforaga o‘xshasa ham, u metaforadan vazifa bajarish xususiyatiga asoslanishi bilan farq qiladi. Masalan, *qanot (qush), qanot (samolyot), o‘q (kamon), o‘q (har xil qurollar o‘qi), qalam (yozuv quroli). qalam (qoshga qo‘yiladigan bo‘yoq), o‘t bog‘lagan qanotlar (H. O.), qalamqoshig‘a tekizgil qalamni (Amiriy), aytilgan so‘z, otilgan o‘q (Maqol).* Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so‘zlarni bilish, ularning ilgari qanday

---

<sup>30</sup> M.Курбанова ва М.Йўлдошев “Матн Лингвистика” – Тошкент “Университет” 2014, 67-бет

shakldagi narsalarni ifodalanganligini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boy ekanligini his qilishimizga yordam beradi.

**Metafora va metonomiya** yunoncha *metonymia* soʻzidan olingan boʻlib, boshqacha nom berish yoki qayta nomlash degan maʼnolarni bildiradi. Bir narsaning, belgining, harakatning nomi boshqasiga oʻzaro bogʻliqlik asosida koʻchirilsa, metonomiya yoʻli bilan koʻchirish deyiladi. Metonomiya – narsa va hodisalar oʻrtasidagi makon va zamondagi oʻzaro aloqadorlik asosida birining nomini ikkinchisiga koʻchishi. Bu narsa, belgi, harakat tasavvurimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni ifodalashi bilan oʻzaro bogʻlangan boʻladi. Tasavvurimizda muallif bilan uning asari, mashhur kashfiyotchi bilan uning kashfiyoti, idish-tovoq bilan uning ichidagi ovqat, joy bilan uning ichidagilar va shunga oʻxshash tushunchalar bir-biri bilan bogʻliq holda shakllanadi. Inson doim soʻzlarni tejab ishlatishga intiladi. Shunday hollarda, yuqorida sanalgan bir-biriga bogʻliq narsalarning birini aytib qoʻya qoladi. Metonomiya ham soʻzlarning koʻchma maʼnosiga asoslanadi. Masalan:

*Fuzuliy*ni oldim qolimga, *Majnun* boʻlib yigʻlab qichqirdi va *Navoiy* tushib yoʻlimga, *faryod* bilan oʻrnidan turdi. *Lermontov*ni tashlamadim hech, *axir* qoʻyib oldim *Xofiz*ni, *Pushkin* menga koʻrsatar har kech, yigʻlab turgan bir *cherkas Qiz*ni. (Hamid Olimjon)

Bu yerda Fuzuliy, Navoiy, Lermontov, Xofiz, Pushkin koʻchma maʼnolarda qoʻllangan. Bu usul bilan nom koʻchishda tashqi, ichki belgidagi oʻxshashlik hisobga

olinmaydi balki ular orasidagi doimiy aloqaning mavjudligi hisobga olinadi, shunga koʻra quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

1) **oʻrin munosabati (koʻza, payola, samovar):** *toʻldirib qoʻy qadahlarini, yangrasin gulyor (qoʻshiq);*

2) **joy, tashkilot soʻzidagi doimiy aloqaga koʻra (shahar ,tashkilot):** *Koʻzimning oldidan oʻtadir gʻamgin , Navoiy tobutin koʻtargan Hirot. (Abdulla Oripov)*

### **3) Boshqa hodisalar bilan uzviy aloqa asosida ko‘chadi:**

*O‘n to‘qqizga chiqasan bugun, Uzoqdaman. Yo‘q menda toqat (Hamid Olimjon). “Navoiyni oldim qo‘limga” deydilar. Navoiyni qo‘lga olib bo‘ladimi? U buyum emasku qo‘lda ko‘taradigan!? Yoki Bedilni o‘qir edim deydilar. Bedil kitob emasku!? Samovarda osh yedik deymiz. Samovar ustiga oshni quyib yeb ko‘ringchi, kuyib qolasiz....*

Hojiboy Tojiboyevning “O‘zbekning gapi qiziq” ruknidagi bunday ichakuzdi hangomalarini ko‘p eshitgansiz va huzur qilib kulgansiz. Uning mahorati shundaki, u so‘zning to‘g‘ri va ko‘chma ma‘nolarini anglagan holda ko‘chma ma‘nolarda qo‘llangan so‘zlarning to‘g‘ri ma‘nosini izohlab, undan odamlarni kuldira oladi. Yuqoridagi gaplar tarkibida kulgu qo‘zgatish uchun asos bo‘lgan so‘zlarning barchasi metonomiyaga asoslangan. To‘liqroq tushunish uchun metonomiyaga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin: *Rossiya” ga qanday borsam bo‘ladi? (Bekatladi) yo‘lovchin bir odamdan so‘radi) Ichak – chavog‘im tugadi, endi kalla sotaman (qassobning gapidan) Mabodo, “Kichkina Shahzoda“ kelmadimi? (Kitobxonning sotuvchidan so‘ragan savoli Navbatim sumka ko‘targan “ jinsi” dan keyin (Xaridorning javobi).*

#### **Metonimiya asosida ma‘no ko‘chishning asosiy yo‘llari quyidagilar:**

1. Biror joyni yoki davrni aytib, o‘sha joydagi yoki o‘sha davrdagi odamlar nazarda tutilganda: *Zal oyoqqa turdi. Fidel Kastroning o‘limiga butun Kuba aza tutdi. O‘zbekiston Qatarni yengdi. Bolam, qiyinchiliklarni sen ko‘rmading. Urush yillari ko‘rdi. Majlis qaror qiladi.*

2. Bir predmetning nomini shu predmet tarkibidagi biror narsa nomi bilan nomlash: *bosh og‘rimoq (miya og‘rimoq), ich og‘rimoq (aslida qorin bo‘shlig‘ida joylashgan a‘zolar).*

3. Bir predmetning nomini shu predmetga asoslangan o‘lchov birligining nomi bilan nomlash: *bosh (odamning boshi) – bosh(uzum mevasi); kun (Quyosh) – kun (sutkaning yorug‘ qismi); Oy (Yer yo‘ldoshi) – oy (yilning o‘n ikkidan biri); jo‘ra (o‘rtoq) – jo‘ra (ikki qismdan iborat bir kiyimlik mato: bir jo‘ra atlas).*

4. Bir predmetning nomi shu predmetdan hosil bo‘ladigan nom asosida qayta nomlash: *choy (o‘simlik) – choy (ichimlik); til (nutq a‘zosi) – til (nutq); dam (nafas, havo) – dam (tinim, vaqt, daqiqa)*

5. Bir predmet belgisining nomi shunday predmet belgisi bor narsaga ko‘chiriladi: *ko‘k (rang) – ko‘k (osmon); kir (iflos) – kir (kiyim-kechak); yupqa (qalinning aksi) – yupqa (taom turi); chuqur (sayozning aksi) – chuqur (o‘ra).*

6. Biror bir joy yoki tashkilot aytilib, unga tegishli kishilar tushunilsa: *Siz hukumat emasmi? Biz “Soliq”dan keldik. “Televideniya”ga joy tayyorlab qo‘ydinglarmi?*

7. Biror joydagi narsani aytib o‘sha joy tushunilsa: *Dadam samovarda choy ichyapti. Onam eshikda kir yuvmoqda. Oshda ko‘rinmadingiz. Sho‘rvaga o‘tiring. Dasturxonga chiqing. O‘zbekning daturxoni chiroyli.*

8. Muallif yoki bosh qahramonni aytib uning asari tushunilsa. *Otam bog‘bon. Navoiyni hech qo‘ltiqdan qo‘ymas, Onam pillakor, Mashrabga zo‘rg‘a tishi o‘tadi. Tangem nechada boshlanadi?*

9. Asar nomi keltirilib, nimaligi yoki janri tushurib qoldirilsa: *Men kecha “Topmadim”ni yodladim. (g‘azal), “O‘tkan kunlar”da o‘zbek qizining ibosi ta‘riflangan. (roman)*

10. Mahsulotning, asarlarning, gazeta-jurnallarning, transportlarning, o‘rinjoylarning nomi aytilib, nimaligi tushunilsa. Misollar: *“Snikers”ni to‘xtatma. (shirinlik), “Taylallohot”dan bering. (dori vositasi) “Besh bolali yigitcha” kelmadimi? (asar), “Imtihon”ga doimiy hamroh bo‘ling. (gazeta) “Rossiya”ga qanday boriladi? (mehmonxona).*

11. Biror shaxsni kiyimi yoki ko‘p takrorlaydigan so‘zi orqali tushunilsa. Misollar: *Bu asarda qipchoqlar va qorachoponlar urushi berilgan. Hoy qizil shapkacha, qayoqqa ketyapsan? “Shu-shu”nikiga boramizmi?*

12. Tana a‘zolari nomidan kasallik nomi yuzaga kelsa: *bosh og‘rig‘i, tish og‘rig‘i, bel og‘rig‘i, qorin og‘rig‘i, quloq og‘rig‘i, oyoq og‘rig‘i, tomoq og‘rig‘i*  
**Yodda tuting! Ammo qo‘l og‘rig‘i, burun og‘rig‘i** degan kasalliklar xalq



tilida yo‘q. “Qo‘lim og‘riyapti” deyiladi. Shuning uchun ularda ma’no ko‘chishi mavjud emas.

13. Bir narsaning nomiga asoslangan hisob so‘z. (Hisob so‘z – bu son va sanalmish o‘rtasida keladigan o‘lchov so‘zdir.): *bir paqir suv, yuz bosh qoramol, yetti yashar ot, bir stakan (suv) ichdim, bir tarelka (ovqat) yedim.*

14. Biror bir narsaning nomi uni yartagan shaxs nomidan kelib chiqsa. Masalan: *Ford, rentgen, om qonuni, nyuton kuchi, Nobel mukofoti, Hojimatov damlamasi, Rizamat ota uzumi.*

15. Bir narsaning nomi u yaralgan yoki ishlab chiqilgann joy nomiga qo‘yilsa: *Shampan vinosi; Banoras adrasi; Chust pichog‘i; Xiva gilami; Qorako‘l terisi; Xisor qo‘y; Marg‘ilon do‘ppi; Xitoy chinni; Damashq qilichi; Kosonsoy pishlog‘i; Chortoq suvi* 16. Biror bir narsa qayta ishlash natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa. Misollar: *choy daraxt – Biz choy ichdik.*

**Yodda tuting!** Metonimiya asosidagi ko‘chma ma’no – fikrni lo‘nda va ta’sirchan bayon qilish vositasi. Shu jihatdan bu ma’no ko‘chishini tejamkorlik ma’no ko‘chishi deb deb ham yuritiladi.<sup>31</sup>

**Sinekdoxa** yunoncha "sinekdoche" - birgalikda anglash so‘zidan olingan bo‘lib, butun nomi bilan qismni yoki, aksincha, qism nomi bilan butunni ifodalash asosida so‘z ma'nolarining ko‘chishini ifodalaydi. Ma’no ko‘chishning bu turi ham nutqimizning ta’sirchanligini oshirishda, ifodali, jozibali bo‘lishida kata ahamiyatga ega. Sinekdoxa qisman o‘rin anglatish munosabatiga ko‘ra metonomiyaga kiradi. Bu usul bilan ma'no ko‘chishini quyidagicha izohlash mumkin. **Odam a'zolari** (qo‘l, bosh): *o'n qo‘limga uzuk taqing, qizlarim (butun), besh qo‘l barobar emas (maqol)* gapida qo‘l so‘zi (butun nomi) barmoq ma'nosini (butunning qismini) anglatadi. *Chorva tuyoqlarini ko‘paytiramiz (gazetadan), har boshdan yuz litrdan sut sog‘ib olamiz (radio eshittirishidan).* “Ikki ayol ko‘chada suhbatlashib turganda Lola ularning yonidan o‘ta turib, salom berdi. Ayollarning biri so‘radi ikkinchi ayoldan: *Farzandi bormi?. Ikkinchisi esa javob tariqasida quyidagicha javob berdi: Tirnoqqa zor.*”

---

<sup>31</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2013. 267-b

Yuqoridagi dialogda ikkinchi ayol birinchi ayolning savoliga “yo‘q” javob berishi ham mumkin edi, lekin u “tirnoqqa zor “iborasini ishlatishni ma’qul ko‘rdi. Bu bilan suhbat mavzusiga aylangan shaxsning farzandi yo‘qligini bayon qilish bilangina cheklanib qolmay, uning farzand ko‘rishga tashnaligini ham alohida ta’kidlab ko‘rsatdi. Bu yerda qism ya’ni tirnoq orqali butun qism “bola” nazarda tutilyapti.

Sinekdoxa quyidagi munosabatlarga asoslanadi:

1. Odam a'zolari: *o'n qo'lni og'zingga solma.*
2. Kiyim va uning qismlari: *Hisobidan adashgan cho'ntagidan ayrilar.*

(Maqol.)

3. Predmet, narsa, qurol: *xamir uchidan patir, o'roq-o'roqchi.*

4. Hayvon, parranda a'zolari: *qizilishton (qush), tulki (tulki terisi).*

5. Daraxt va mevasi: *Namanganning olmasi hil-hil pishibdi (qo'shiq)*

Sinekdoxada narsalarning butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi. Bunda butun o‘rnida qism va aksincha, qism o‘rnida butunning nomi ishlatiladi. Misollar:

1. ***Bir juft qaro ko‘z dardida Mashrab devona bo‘ldi, Shu jodu deb o‘z yurtidan Farhod begona bo‘ldi.*** (Tursunoy Sodiqoba) *Talabaning vazifasi ustozning so‘zini yerda qoldirmaslik.*

2. ***Besh qo‘lingni og‘zingga tiqma.*** (maqol) *Bu yil Respublikamizda g‘alladan mo‘l hosil yetishtirildi.*

Birinchi misolda qismning nomi butun o‘rnida, ikkinchi misolda butunning nomi qism o‘rnida ishlatilgan. Baxtiyor Mengliyev Rajabovichning darsliklarida quyidagi misollarni ham ko‘rishimiz mumkin:

1. ***Besh qo‘lini og‘ziga tiqadi.***

2. ***Ochildiboy tirnoqqa zor edi.***

Sinekdoxik yo‘l bilan hosil qilingan ma’noni ham lisoniy va nutqiy ma’noga bo‘lish mumkin. Masalan, keltirilgan *qo‘l, tirnoq* leksemalarining sinekdoxik ma’nosi sememalashgan. ***Stol sindi, eshik buzildi*** gaplaridagi *stol* so‘zining “***oyoq***” (stolning oyog‘i), ***eshik*** so‘zining “***qulf***” (eshikning qulfi) hosila ma’nolari

nutqiy sinekdoxik ma'noga misol. Ammo har qanday butunlik nomi bilan qismni, qismning nomi bilan butunni atab bo'lmaydi. Masalan, daraxt va shox, barg, tana, ildiz, meva butun va qismdir. Lekin *barg* deganda hech qachon daraxt anglashilmaydi. Ammo meva nomi, masalan, *olma* atamasi orqali daraxt ham ifodalanadi.

### **BOB BO'YICHA XULOSALAR**

1. O'zbek tilida metafora leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri sifatida qaraladi hamda ko'chimning o'xshashlikka asoslangan turi sifatida baholanadi. Ko'chma ma'no biror so'z leksik ma'nosi referenti bilan obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat, belgi yoki sezgi kabilardan biri aloqador yoki munosabatda bo'lganligi uchun, uning nomida atalib ketishi orqali yuzaga keladi. Ya'ni so'z leksik ma'nosi ikkinchi bir leksik ma'noni hosil qiladi. Shu sababli keyingi leksik ma'no metafora deb ataladi.

2. O'zbek tilshunosligida ko'chma ma'no turlarini o'rganishda prof. M.Mirtojiyev va I.Shukurov, Z.Tohirov, D.Xo'jayeva; shuningdek, prof. Sh.Rahmatullayev va R.Yunusovlarning xizmatlari alohida o'rin egallaydi.

3. Metaforaga yondosh va o'xshash hodisalar anchagina bo'lib, ko'pincha ular metafora deb atalaveradi. Metaforaning yondosh hodisalardan farqi uni shu xil hodisalar bilan qiyosan olib o'rganganda ochiladi.

## **II BOB. BADIY ASARLARDA METAFORA VA UNING USLUBIY XUSUSIYATLARI**

### **2.1-§. Metaforalarning kognitiv-stilistik xususiyatlari**

Bugun tilshunoslikda metafora haqida yetarlicha bilim va ko'nikmalar mavjud bo'lishiga qaramay, unga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa, til va psixik hodisalarning o'zaro ta'siridagi tadqiqotlarning dolzarblashuvi tufayli metaforologiyaning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishi bilan bog'liqdir. So'nggi paytlarda metafora hodisasiga faylasuflar, mantiqchilar, sotsiologlar, psixologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va gumanitar fan vakillari ham muntazam ravishda murojaat qilmoqdalar. Ushbu metaforologik bumga turtki bo'lib, metaforaning kognitiv nazariyasida o'z ifodasini topgan metafora mohiyati haqidagi yangi g'oyalar edi. O'tgan asr so'nggida E.S.Kubryakova "Kognitiv fan bu- dunyoni idrok etish, tasniflash, baholash va tushunish doirasida bilimlarni aks ettirish va saqlashni o'rganadigan fan"dir deb yozadi.

Kognitiv jarayondagi asosiy vazifa inson miyasining analogik qobiliyatlarining voqea hodisasi sifatida metaforalar tomonidan amalga oshiriladi. Kognitiv jarayonlarda inson ongining o'xshash imkoniyatlarining namoyon bo'lishi sifatida metafora muhim ro'l o'ynaydi.

Zamonaviy kognitiv fanda metaforaga tushuntirish, baholash, qabul qilish va idrok etish kabi psixik jarayonlarning asosi sifatida qaraladi. Inson metafora yordamida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, ularning estetik imkoniyatlaridan foydalanadi, shuningdek, metafora bilan fikr yuritadi, ular yordamida o'zi yashab turgan olamni o'rganadi. Metaforalar bizga qabul qiluvchining ongida mavjud bo'lgan dunyoning linguistik suratini o'zgartirishga, yaxshi tanish bo'lgan hodisalarni yangicha toifalar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bunda metaforaning estetik salohiyati, borliqni emotsional baholash qobiliyati muhim ro'l o'ynaydi. Kognitiv metafora nazariyasining tobora yangi modifikatsiyalarining ortib borishi ushbu ilmiy yo'nalish tarixini, hozirgi holati va kelajakdagi rivojlantirish istiqbollari har tomonlama tushunishni talab qiladi.

Ma'lumki, kognitiv metaforani o'rganish nazariyasi va amaliyotiga oid zamonaviy nashrlar J.Lakoff va M.Johnson ning "Biz yashayotgan metaforalar" (Metaphors by which we live) klassik tadqiqotiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, metaforizatsiya ikki bilim tuzilmasi (kontseptual sohalari: manba sohasi va maqsadli soha) o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik jarayoniga asoslanadi. Insonning tevarak-atrofdagi olam bilan bir yo'nalishli metafora bo'lishi natijasida sfera-manba elementlari kognitiv qobiliyatning mohiyatini tashkil etuvchi kontseptual maqsadmanbani hosil qiladi. Metaforik barqarorlik nafaqat ikki bilim strukturasi alohida elementlari o'rtasida balki kontseptual sohalarning butun tuzilmalari o'rtasida ham sodir bo'ladi. Kontseptual metafora nazariyasining keyingi rivojlanishi bir necha yo'nalishlarda bo'lib, ularning har biri inson ongini o'ziga xos g'oyalari va metodlari bilan boyitdi. Maqsadli sohada metaforik proektsiya paytida manba sohasi tuzilmasi qisman saqlanib qoladi degan taxmin "o'zgarmaslik gipotezasi" deb nomlanadi. Ushbu xususiyat tufayli metaforada aniq ifodalanmaydigan, lekin tashqi bilimlar natijasida kelib chiqadigan metaforik hodisalar bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, manba sohasining kognitiv tipologiyasi ma'lum darajada maqsadli sohani o'ylash usulini belgilaydi va qaror qabul qilish va harakat qilish uchun asos vazifasini o'taydi. Kontseptual metafora asosidagi zamonaviy tadqiqotning xilma-xilligi J.Lakoff va M.Johnson nazariyasiga qiziqish ortib borayotganidan dalolatdir.

Kontseptual metafora inson tajribasining butun sohasini qamrab oladi va muhim kognitiv imkoniyatlarga ega degan qarash hozirgi paytda kontseptual metafora bo'yicha ko'plab tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, V.Budayev, A.P.Chudinov kabilarning ilmiy nashrlarida kontseptual metaforaga sharhlar berilgan. Hozirgi bosqichda oilaviy o'xshashlik tamoyili asosida birlashtirilgan metaforani o'rganishga kognitiv yondashuvning murakkab ilmiy prototipini tashkil etuvchi bir-biriga ta'sir qiluvchi, to'ldiruvchi va bir-birini inkor etuvchi bir nechta yo'nalishlarni farqlash mumkin.

Zamonaviy metaforologik nazariyalar: J.Lakoff va M.Johnson konseptual metaforaning klassik nazariyasi, M.Turner va J.Fokonie, J.Grady asosiy metafora nazariyasi, B.Shpelmanidr metaforaning izchil modeli, L.Ritchi metafora talqinining bog'lovchi nazariyasi, A.N.Baranov va Yu.X.Kapaylov, A.P.Chudinov metaforik modellashtirish nazariyasi va boshqalar. Ushbu yo'nalishlarning har biri o'z tarafdorlariga ega, ularning aksariyati o'zlarining asl g'oyalarini boyitadi.

Yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, tadqiqotchilar hali ham kontseptual metafora nazariyasining individual qoidalarini o'zgartirib, to'ldirishda davom etmoqdalar.

Shunday qilib, A.Musolf o'zining bir qator ishlarida manba sferasining tuzilishi maqsadli soha subektlarini tushunishni qat'iy belgilaydigan metafora haqidagi o'sha nuqtayi nazarni qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Haqiqatan, metaforizatsiya jarayoni doimiy ravishda sfera-manba va sferamaqsad o'rtasida o'zaro ta'sir qiladi, bu esa butunlay o'ziga xos hodisalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Tadqiqotchilar bor e'tiborlarini "tana aqli" nazariyasi haqiqatlarini aniqlashtirish va tushunishga qaratmoqdalar.

J.Zinken voqelikni metaforik idrok etishda shaxsning hissiy-harakat tajribasi muhimligini qayd etib, metaforalarni tahlil qilishda madaniy va milliy qarashlarni hisobga olish zarurligini aytib o'tadi. Matn ichidagi metaforalarni alohida guruh sifatida ajratib ko'rsatgan tadqiqotchi, siyosiy voqealarni tushunish uchun ularning g'oyaviy ahamiyatini ko'rsatdi.

Bu yondashuv I.Hellstenning umumiy tuzilmaviy metafora va tarixiy metaforalarni farqlash zarurligi haqidagi g'oyasiga mos keladi, ularning avlodi tarixiy nomlar va hodisalar zamonaviy siyosiy vaziyatlarga prognoz qilingan. Xuddi shunday pozitsiyani P.Paris egallab, tarixiy metaforalarni alohida guruh sifatida ajratib ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, tana ongining nazariyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan metaforalar asosan dunyoning turli qismlarida yuzaga keladigan metaforik oqibatlarning pallelelligini belgilaydi, ular juda farq qiladi. Shu bilan birga, milliy tarix va madaniyat xususiyatlari metaforalarning milliy o'ziga xosligini belgilab beradi. Boshqa bir guruh metaforalar esa, odamlarning din,

madaniyat va tarix bilan bogʻlangan oddiy tushunchalarni oʻz ichiga oladi. Ularning koʻpchiligi Bibliyaga asoslangan umumiy nasroniy metaforalar hisoblanadi. Keyinchalik metafora haqida boshqa qarashlarni D.Ritchi metaforik talqinning biriktiruvchi nazariyasida taklif qildi. Tana tajribasi orqali fikrlashning asoslari haqidagi tezisga tayanib, tadqiqotchi metaforalarni kognitiv va kommunikativ matnda tahlil qilish kerakligini, shu jumladan, ogʻzaki muloqotning batafsil taqdimoti va aloqa ishtirokchilarining oldingi tajribasini taʼkidlaydi. Metaforalarning talqin qilish bevosita muloqot ishtirokchilarining umumiy xususiyatlariga bogʻliq boʻlib, shuning uchun, tadqiqotchi sfera-manba va sfera-maqсад, shuningdek, ular oʻrtasidagi aloqadorlikni koʻrib chiqishda ushbu jihatga alohida eʼtibor qaratishi muhimdir. Har bir metafora oʻziga xos, aloxida kommunikativ matnda talqin qilinadi va har bir talqin sezilarli darajada farqlanishi mumkin.

Tadqiqotchilarning aytishicha, yanada murakkab belgi bu konseptual sohalar oʻrtasidagi munosabatlardir. Masalan, nizo haqida oʻylaganimizda “urush” asosiy tushuncha emas. Chunki nizo kelib chiqqan joyda bahs-munozara boʻlishi ham mumkin, lekin bu urush tushunchasi emas. Bu yerda bahs talqinining murakkab tuzilmasi mavjud (oddiy muhokamadan tortib, raqobat va urushgacha).

Metaforalarni matndan tashqarida tahlil qilganimizda ular ifodalayotgan maʼnoni tushunish biroz mujmalroq boʻladi. Masalan: agar “himoya”, “pozitsiya” metaforalariga eʼtibor qaratsak, ular urushga aloqador soʻzlar ekanligini tushunish unchalik qiyin emas. Lekin “manevr”, “taktika” soʻzlari “urush” ni nazarda tutyaptimi yoki sport musobaqasi yoki shaxmat oʻyini nazarda tutyaptimi aniqlash qiyindir. Buning uchun bizga albatta matn asosiy manba boʻlib xizmat qiladi. Matn ichida aynan metafora bogʻlangan birliklar yordamida oʻsha metaforalar anglatayotgan maʼno aniqroq namoyon boʻladi. Shuni aytib oʻtish kerakki, gʻoyalarning umumiy rivojlanishi kognitiv ravishda uning aloxida yoʻnalishlarining rivojlanishiga, shuningdek, kognitiv metafora nazariyasining rivojlanishiga doimiy taʼsir qiladi. Konseptual metafora nazariyasining paydo boʻlish davrida metafora rivojlanishi bir yoʻnalishli boʻlib, bunda sfera-manba maqsadli soha tarkibini

belgilaydi deb faraz qilingan. Biroq, metaforik proektsiyani bir yo‘nalishliligi haqidagi tezis haqida savollar ko‘payib, metaforik o‘zgarishlarning ko‘p yo‘nalishliligi to‘g‘risidagi faktlar tobora ko‘proq muhokama qilinmoqda. Shunday qilib, S.Koulson metafora bo‘lishi mumkinligini aytib o‘tdi, bunda maqsadli soha manba sferasini teskari tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, bu pozitsiyani “Birodarlar Menendez” komputer virusining metaforik nominatsiyasini tahlil qilish orqali tasvirlaydi. Ma’lumki, jinoyatchi aka-ukalar o‘z ota-onalarini o‘ldirishgan, va meros huquqi bo‘yicha katta boylikka ega bo‘lishlari kerak edi. Ochiq sud jarayonida, aka-uka Menendezlar jinoyatni sababini uzoq vaqtdan buyon ota-onalari tomonidan zo‘ravonlikka uchragani, va jinoyatni o‘zi esa qasddan qotillik emas, balki o‘z-o‘zini himoya qilishdir deb izohlaydilar. Bu esa haqiqiy faktlarga tomomila zid edi, chunki qotillik paytida ota-ona qurolsiz bo‘lishgan, va ikkala aka-uka ham 20 yoshdan katta bo‘lishgan. “Birodarlar Menendez” komputer virusi, fayllarni buzish orqali, foydalanuvchining yo‘q qilingan fayllar tufayli jismoniy zo‘ravonlik qurboni bo‘lganligini ma’lum qilgan. Bir tomondan, virus metaforik proektsiya uchun nishon bo‘lgan bo‘lsa, boshqa tomondan aka-uka Menendezlar bilan sodir bo‘lgan haqiqiy voqea-hodisani baholovchi xulosalarni o‘z ichiga oladi. Kognitiv metaforaning tahliliga aloxida yondashuv konseptual bog‘liqlik nazariyasi doirasida rivojlantirilgan.

Ushbu nazariya asoschilari M.Terner va J.Fokonier metaforalash maqsadli sferadan maqsadli sferaga proektsiya qilish bilan cheklanib qolmaydi, degan xulosaga kelishgan. Ushbu nazariya doirasida metaforaga kognitiv yondashuv J.Fokonier tomonidan psixik fazolar nazariyasi va konseptual metafora nazariyasi sintezi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning ayrim qoidalari qayta ko‘rib chiqilgan.

Dastlab, M.Terner va J.Fokonier ikki bosqichli metafora modeliga va ko‘p bosqichli metafora modeliga muqobil bo‘lgan modelni taklif qilgan edi. Tadqiqotchilarning fikricha, sfera-manbadan sfera-maqsadgacha bir yo‘nalishli metaforik proektsiya turli xil murakkab, dinamik maxsus vaziyat bo‘lib, uni tushunishda kognitiv metafora nazariyasiga ikki o‘rtadagi bo‘shliqni kiritish kerak bo‘ladi. Shunday qilib, J.Lakoff va M.Johnson nazariyasidagi ikki konseptual



sohadan farqli o'laroq, to'rtta aqliy bo'shliqni ko'rib chiqishni taklif etadi: ikkita boshlang'ich bo'shliq (kirish fazosi), umumiy makon (umumiy fazo) va aralash makon (aralash fazo). Garchi manba maydonlarining miqdori ikkitadan oqrtiq bo'lsa ham, konseptual metafora nazariyasida manba maydonlari manba-sfera va maqsadsferaga bog'liqdir.

Umumiy makon har bir asl makonga xos bo'lgan ro'llar, ramkalar va sxemalarni o'z ichiga oladi, ya'ni eng mavhum darajada metaforizatsiyaning asosi bo'lib xizmat qiladi. Aralashmada, asl bo'shliqlarning elementlari aralashtiriladi va natijada sifat jihatidan yangi konseptual struktura xosil bo'ladi. Bu struktura avvalgisiga bog'liq bo'lmagan xolda keying rivojlanish uchun o'z imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bunday yondashuvni, masalan, Vashingtonda mashhur bo'lgan siyosiy metafora bilan ko'rsatishimiz mumkin: “ Agar Klinton Titanik bo'lganda edi, aysberg cho'kib ketgan bo'lardi” ( If Clinton were the Titanic, an iceberg would sink).

Bunda asosan ikki dastlabki aqliy bo'shliq konseptual bog'liqligi inobatga olingan: ya'ni prezident kema bilan aloqador, jang esa aysberg bilan aloqador. Blend ramka tuzilishini Titanik ramkasidan (kema sayohati va suvda ulkan narsa bilan to'qnashuv bor) va sabab va hodisalar tuzilishini mashhur Klinton senariysidan (Klinton omon qolgan, halokatga uchramagan) oladi. Ushbu misolda umumiy makonga faoliyatga jalb qilingan va aniq maqsad bilan boshqariladigan, birinchi obektning faoliyati uchun katta xavf tug'diradigan boshqa obekt bilan to'qnashadigan bitta obekt kiradi. Ko'rinib turibdiki, umumiy maydonda bu to'qnashuvning natijasi oldindan belgilanmagan. Ichki maydon proektsiyasida metaforik belgi mavjud, biroq, aralash maydonda manba ramkasidan olinmagan sabab-hodisa tuzilmasi mavjud.

Chet tilshunosligida ham metaforaning tanqidiy tahlili nazarasiyasi keng tarqaldi, bu esa, kognitiv tuzilmalarni modellashtirishni tahlil qilinayotgan voqealarni gumanistik tushunish bilan birlashtirishga imkon beradi. Ayni shu paytda ba'zi tadqiqotchilar bu metodikaga tanqidiy baho berdilar. Jumladan, kognitiv metafora maydonidagi mashhur mutahassis P.Chilton aytib

oʻtadiki, metaforani tanqidiy tahlil qilish tarafdorlari “turli xildagi adolatsizlikka qarshi kurashishga harakat qilmoqdalar”. Albatta, bu tezis yordamida muhokama qilish mumkin va zarurdir: liguistik-kognitiv tadqiqotning asosiy vazifasi adolatsizlikning barcha koʻrinishlariga qarshi tezkor kurashish emas, balki ijtimoiy adolatsizlikning barcha koʻrinishlariga jamoatchilik eʼtiborini jalb qilishdir. Zamonaviy rus tadqiqotlarining oʻziga xos xususiyati-metafora tahliliga kognitivmunizarali yondashuvning nazariy va amaliy rivojlanishi bilan harakterlanadi. Siyosiy dunyoni turkumlashtirish va konseptuallashtirishda metafora rolining birlashtiruvchi tavsifini A.N.Baranov, Yu.X.Karaulov, E.S.Kubryakova, T.G.Skrebtsova, A.P.Chudinov, Z.V.Budayev lar asarlarida koʻproq uchratishimiz mumkin.

Bu yondashuv metaforaning kognitiv va diskursiv oʻlchamlari oʻrtasida katta farq mavjud emasligi toʻgʻrisidagi tezisga asoslanadi. Shunga koʻra, tadqiqotchilarning asosiy harakatlari metaforaning kognitiv va diskursiv xususiyatlarini aniqlashga qaratilgandir. Metafora bir vaqtning oʻzida ham aqliy ham linguo-ijtimoiy hodisadir. Masalan, siyosiy matnlarni oʻrganib shunga xulosa qilishimiz mumkinki, mahsus metaforaning yolgʻiz kognitiv yoki yogʻiz diskursiv tarafdin tasniflash metafora imkoniyatlarini toʻlaligicha ochib bera olmasligi mumkin. Hozirgi tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, metafora tahliliga kognitiv yondashuv metaforologiyada muhim roʻl oʻynaydi, biroq kognitiv nazariyaning koʻp taraflari hali ham nomaʼlumligicha qolmoqda. J.Lakoff va M.Johnson ilgari surgan gʻoyalari butun dunyo boʻylab keng tarqaldi va koʻplab amaliy natijalarga erishildi. Shu bilan birga, bu nazariya koʻplab ilmiy maktablar va yoʻnalishlarda oʻrganilib talqin qilinmoqda, keyingi rivojlanishlar uchun yangi usul va metodlar ishlab chiqilmoqda.

## 2.2-§. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan metaforalar hamda ularning asardagi ahamiyati

Nutqimizda eng keng tarqalgan va ko‘p qo‘llaniladigan ma’no ko‘chish usuli metaforadir. Metafora narsa yoki tushunchalar o‘rtasidagi o‘xshashlik asosida nom (so‘z)ning ko‘chishidir. Metafora (yunoncha metaphora- ko‘chirish) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi ma’lum o‘xshashlik asosida ko‘chishidir<sup>32</sup>. Metaforalarni o‘rganish qadimgi davrlardan buyon tilshunoslarning diqqat markazida bo‘lgan mavzu hisoblanadi. Antik davrlarda metaforani olamni anglashning aloxida usuli va vositasi sifatida ko‘rsatish Aristotel ( shuningdek Sitseron) ga taalluqli g‘oyadir<sup>33</sup>. Bu davrda ma’no ko‘chimlarini tasnif etishdagi ilk qadamlar qo‘yildi: metaforaning ismlar (umuman so‘zlar) qatoridagi o‘rnini aniqlash, metaforaning “ noodatiy” fenomen tabiatini tekshirish singari masalalar shular qatoridandir<sup>34</sup>. D.F.Sitseron, Kvintiliandan farqli ravishda, ilk marta metafora orqali buyumlar to‘g‘risidagi ma’lumotni aniq va ravshan yetkazish mumkinligini payqadi. Metaforaning vazifaviy mezonini o‘rnida metaforaning qo‘llanish maqsadlarini ko‘rgan Kvintilian, “Ism yoki fe‘l o‘z o‘rnidan u yetishmayotgan yoxud undan afzal bo‘lmagan nomlar o‘rniga ko‘chiriladi”<sup>35</sup> deb hisoblaydi. Antik metaforologiyada metafora nom ko‘chishining har qanday turi ( Aristotel); metonomiyaning zidi (Kvintilian) sifatida qaralib, u nutqimizga nominativ, baxolovchi va dekorativ ma’nolar berishini tavsiflagan. Garchi Aristotelning qo‘lyozmalarida referensiya, mohiyat, haqiqat tushunchalari deyarli tilga olinmagan bo‘lsa ham, uning metafora va xissiy bilish to‘g‘risidagi konsepsiyasi o‘z davri hamda hozirgi davr uchun ham modernistik g‘oya bo‘lib qoladi.

Metaforaga badiiy nutqning obrazlilikini ta’minlovchi vosita sifatida qarash fanda keng tarqalgan. Biroq badiiy matn hatto butun asar matnida ham ba’zan

---

<sup>32</sup> Nurmonov.A., Sobirov.A., Qosimova.N., Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T: Ilm ziyo., 2013y,190-b.

<sup>33</sup> Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4.

<sup>34</sup> МАХМАРАЙМОВА ШОХИСТА ТУХТАШЕВНА “ЎЗБЕК ТИЛИ МЕТАФОРЛАРИНИНГ АНТРОПОЦЕНТРИК ТАДҚИҚИ” ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ ДОКТОРИ (dsc) ДИССЕРТАЦИЯСИ АВТОРЕФЕРАТИ, Самарқанд – 2020,15-b.

<sup>35</sup> Quintilianus M. Fabius. Institutiones oratoriae. Libri duodecim. Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6).

metaforalarni uchratmaslik mumkin. Bu hol ushbu matnlarning badiiy-obrazlilikka ega emasligini ko'rsatmaydi. Zero, metafora birinchidan, obrazlilikka xizmat qiluvchi nutq hodisalaridan biri, xolos. Ikkinchidan, metafora faqat obrazlilikni vujudga keltiruvchi vosita emas, balki badiiy shaklni shakllantiruvchi vosita hamdir. Metaforaning nutq jarayonidagi vazifasi uning xarakteri bilan bog'liq. Binobarin, ma'no ko'chishi badiiy-obrazlilikni, ta'sirchanlikni vujudga keltirish uchun asos bo'lsa ham, barcha ma'no ko'chish vositasini qo'llashda nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlash ko'zda tutilmaydi. Ammo har qanday ma'no ko'chishi nutqda sezilarli darajada jozibalilik baxsh eta oladi.

Metaforaning badiiy nutqda badiiy-obrazlilikni kuchaytiruvchi tub mohiyati shundan iboratki, metafora mavjud matnlarda boshqa vosita bilan fikrni metafora orqali ifodalagandek ifodalash imkoni bo'lmaydi. Metaforaning boshqa lingvistik vositalardan farqli ravishda ma'noni yashirin tarzda ifodalashi, narsa-hodisani xarakterlashda taqqoslash, chog'ishtirish kabi holatlarning mavjudligi bu vosita orqali takrorlanmas fikr ifodalash uchun sharoit yaratadi. Metaforaning nutq jarayonidagi qimmati uning takrorlanmasligida ekanligi haqidagi bunday fikrlar ko'pgina filologlar, jumladan B.V.Tomashevskiy<sup>36</sup> hamda K.A.Dolininlar<sup>37</sup> tomonidan ham qayd etilgan. Chunonchi, B.V.Tomashevskiy fikrni o'xshatish, metafora va sifatlash orqali ifodalash haqida so'z yuritar ekan shunday yozadi: "Alohida ajratib ko'rsatish lozim bo'lgan narsaning belgisini oddiy ifodalash hamma vaqt ham ta'sirchanlik talablariga javob bera olmaydi. Kishida hissiyot uyg'otish uchun belgi haqida aniq tasavvur hosil qilish kerak, qachonki shu belgi esda qolsin yoki diqqatni jalb etsin. Shuning uchun ba'zan narsaning belgisi boshqa narsa yoki hodisaning xuddi shunday belgisi bilan taqqoslanadi"<sup>38</sup>. Ana shunday taqqoslanish asosida metafora, o'xshatish kabi badiiy vositalar vujudga keladi va fikrni yorqin, obrazli, ta'sirchan ifodalash imkoniyati tug'iladi.

Metaforalarning matn yaratilishidagi o'rnini tadqiq etishda, avvalo metaforik ma'noli so'z yoki jumlaning mikro matn referensiyasiga munosabatini o'rganish

---

<sup>36</sup>Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Л., 1959. – С. 201.

<sup>37</sup> Долинин К.А. Кўрсатилган асар. – Б. 135-136.

<sup>38</sup> Томашевский Б.В. Кўрсатилган асар. – Б. 201.

lozimligini D. Xudoyberganova o‘z ishida ta’kidlab o‘tadi va metaforik ma’noli birlik matn tarkibida asosan quyidagi holatlarda voqe bo‘ladi deya uch holatni ko‘rsatib o‘tadi:

- 1) tushuncha ifodasi sifatida;
- 2) vaziyat ifodasi sifatida;
- 3) vaziyatlar yig‘indisi ifodasi sifatida;

Metafora tushunchani ifodasi sifatida kelganda matn tarkibida so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida namoyon bo‘lib, matnda qo‘llangan biror jumla tarkibidagi predmet belgi yoki harakat-holatning boshqa bir predmet belgi yoki harakat-holat bilan qiyosiy munosabatini ifodalaydi.

Metafora umumnutq hodisasi. Shu jihatdan yondashilganda, metafora ham boshqa tasviriy vositalar singari keng vazifali. Biroq metafora nutqning boshqa turlarida badiiy nutqdagidek keng ko‘lamda qo‘llanilmaydi. Metafora filologik manbalarda o‘xshatishning bir turi sifatida talqin qilinib kelingan. Chunonchi, qadimgi grek faylasufi Aristotel metaforaga o‘xshatishning bir turi sifatida qaragan<sup>39</sup>. Metafora xususida fikr yuritilgan aksariyat ishlarda metafora o‘xshatishning yashirin turi sifatida talqin etiladi<sup>40</sup>. A.T.Rubaylo o‘xshatish metaforaning birinchi formasi ekanligini metaforaning asosida o‘xshatish yotishini e’tirof etadi<sup>41</sup>. O‘zbek tilshunosligida ham xuddi shunday fikrlar mavjud. “O‘zbek tili” darsligida metafora shunday ta’riflanadi: “Predmetlar, hodisalar orasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida ulardan birining ifodasi bo‘lgan so‘zni ikkinchisini ifodalash uchun ishlatish metafora deyiladi”<sup>42</sup>. R.Qo‘ng‘urov metaforaning istiora degan ma’no anglatishini qayd qilish bilan bir qatorda, uning oddiy qiyosdan farqlanishini ham ta’kidlaydi. O‘zbek tilshunosligida metaforani maxsus o‘rgangan G.Qobuljonova uning mohiyati haqida mavjud bo‘lgan nom so‘zlovchi nuqtai nazaridan ayni nutqiy sharoitni ta’minlay olmay qolganda yuzaga chiqishini

---

<sup>39</sup> Античные теории языка и стиля. – М.: – Л., 1936. – С. 219.

<sup>40</sup> Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – Л., 1973. – С. 196.

<sup>41</sup> Рубайло А.Т. Художественное средство языка. – М., 1961. – С. 37.

<sup>42</sup> Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 21.

ta'kidlar ekan, metaforaning vazifasi nutqni qisqa, ta'sirchan, lo'nda qilish, nutqni aniqlashtirish ekanligini ko'rsatadi<sup>43</sup>.

M.Mirtojiev til hodisasi va nutq hodisasi bo'lgan metaforalar haqida fikr yuritib, nutq hodisasi bo'lgan metaforalarning uslubiy xususiyatga egaligini e'tirof etadi<sup>44</sup>. Sh.Maxmaraimova metaforaning badiiy obrazlarning va yangi ma'nolarning hosil bo'lishidagi asosiy yo'l ekanligini, bir qator nutqiy vazifalarni bajarishini qayd etadi<sup>45</sup>.

Darhaqiqat, metafora o'xshatishning bir turi bo'lib, o'xshatishdan quyidagicha farqlanadi: a) o'xshatishda qiyoslanuvchi narsa yoki hodisa ifodalanayotgan so'z to'g'ri ma'noda qo'llaniladi, metafora esa ko'chma ma'noga ega; b) o'xshatish to'rt komponentdan – o'xshatish ob'ekti, o'xshatma belgi, o'xshatuvchi obraz va o'xshatish vositasidan tashkil topadi, metafora esa bir komponentdan – o'xshatilgan narsadagina iborat bo'ladi<sup>46</sup>.

Bu farqli jihatlar o'xshatish va metaforani garchand, bir asosda vujudga kelsada, o'ziga xos ikki hodisa ekanligini ko'rsatadi. Funktsional jihatdan esa bu ikki hodisa yana birlashadi, ya'ni nutqning ta'sirchan obrazlilikini ta'minlash vazifasini bajaradi. Metaforaning badiiy nutqdagi vazifasi xususida fikr yuritilar ekan, shuni alohida ta'kidlash kerakki, barcha metaforalar ham badiiy nutq talablariga mos kela olmaydi. Zero, badiiy nasrda uchraydigan metaforalarning ma'lum qismi umumnutqiyliigi, til tizimida mustahkam o'rnashib qolganligi bilan ajralib turadi. Shunga ko'ra badiiy matnlarda uchraydigan metaforalarni ikki turga bo'lish mumkin: a) polisemantik xarakterdagi lingvistik metaforalar; b) badiiy metaforalar. Metaforaning bu ikki turi hosil bo'lishi jihatidan farqlanmaydi. Har ikkalasi ham ma'no ko'chishi orqali hosil bo'ladi. Predmet belgisiga ko'ra xuddi shunday belgi mavjud bo'lgan ikkinchi predmet nomini olishi polisemantik xarakterdagi lingvistik metafora hosil qiladi. Bunday metaforalarda uslubiy bo'yoq emotsional-

---

<sup>43</sup> Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз... дисс. автореферат. – Тошкент, 2000. – Б. 10.

<sup>44</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. Тошкент: Mumtoz so'z, 2010. – Б. 96.

<sup>45</sup> Махмараймова Ш. Лингвокультуроология. Тошкент: Чўлпон, 2017. – Б. 120.

<sup>46</sup> Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 10-11; Қўнғуров Р. Кўрсатилган асар. – Б. 16.

ekspressivlik, nutqning biror turi uchun mansublik yoki biror muallif individual uslubiga xoslik mavjud bo'lmaydi. Ular umumtil birligi ekanligi bilan xarakterlanuvchi metaforalar bo'lib, predmetlar orasidagi ochiq o'xshashlikka asoslanilgan holda tushuncha ifodalaniladi. Masalan, etak (tog'ning etagi, choponning etagi), bet (kitobning beti, odamning beti, kun chiqar bet), uch (daraxtning uchi, ipning uchi) va boshqalar.

Metaforaning nutqda qay darajada vazifa bajarishi shu ko'chim uchun asos bo'ladigan o'xshashlikning mohiyati bilan bog'liq. Metaforalar ochiq o'xshashlik asosida vujudga kelsa, u asosan nominativ vazifa bajaradi. Buning yorqin dalili lingvistik metaforalardir. Badiiy metaforalarga xoslik dastlab originallik va individuallik bilan belgilanadi, toki bu xususiyatlar badiiy metaforaning nutqiy vazifasini namoyon etuvchi jihatlardir. Badiiy metafora nutqda tayyor obrazli ifodasi bo'lmagan fikrni individual ifodalash vositasi ekanligi uchun ham kuchli uslubiy bo'yoqqa ega bo'lgan emotsional-ekspressiv vositalardan hisoblanadi. Badiiy metaforada ko'chma ma'no hosil qiladigan so'z shunchaki predmetning nomini olib qolmaydi, balki predmetning obrazli atamasi ham bo'ladi. Shu boisdan badiiy metaforalar badiiy matn uchun muhim tasviriy vositalardan sanaladi. Badiiy metafora – obrazli, ifodali va ta'sirchan vositadir. Shu asosda uning badiiy nutqdagi vazifasi ham obrazlilik, tasviriylik va ta'sirchanlikni ta'minlashdir. Odatda, metafora predmetlar orasidagi biror belgiga asoslanishi natijasida vujudga keladi. Metaforaning badiiy qimmati ana shu belgining yashirin yoki ochiqligi bilan ham bog'liq. Belgining ochiqligi metaforani oddiylashtiradi, qo'llanilish doirasining kengayishi, uning ta'sir kuchining susayishiga olib keladi. Bunday metaforalarga “muhabbat” ma'nosidagi – o't, “xayolga ketdi” ma'nosidagi – xayol olib qochdi, xayoli uchdi, “qaradi” ma'nosidagi – bosh suqdi, “yomon” ma'nosidagi – ishi xurjun kabi ifodalar misol bo'la oladi. Bu xildagi metaforik ifodalarni turli ijodkorlar asarlarida, turli badiiy matnlarda uchratish mumkin. Shuning uchun badiiy asarlarda uchraydigan metaforalarni qo'llanilishi jihatidan ikkiga bo'lish mumkin: a) an'anaviy metaforalar; b) individual metaforalar.

An'anaviy metaforalarning nasriy adabiyotda eng ko'p uchraydigan turi yomon kishilarga nisbatan bo'ri, quzg'un, yirtqich va boshqa so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash hisoblanadi.

Individual metaforalar badiiy nasr uchun muhim, badiiy fikrni oldin ifodalalmagan shaklda ifodalash usuli bo'lib, fikrning badiiy-obrazlilikini kuchaytiruvchi samarali birliklar hisoblanadi. Shu boisdan badiiy matnlarda uchraydigan individual metaforalar, ularning nutqiy vazifasi tahlili badiiy nutqqa lingvistik baho berish uchun zarurdir. Badiiy nutqdagi ko'chma ma'noli vositalarning ko'pincha shtamp xarakteriga ega ekanligidan kelib chiqib, V.P.Grigorev individual metaforalarni semantik so'z yasalishining eng muhim vositasi deb hisoblaydi. Xarakterlisi shundaki, bir tushuncha hatto, bir ijodkor tomonidan bir necha individual metaforalar orqali ifodalanganini kuzatish mumkin. Bunday metaforalar orasida o'zaro sinonimik xususiyatlar mavjud bo'ladi.

Predmet yoki hodisaning bu xilda yangicha nomlash, ayniqsa, badiiy nasr uchun juda zarur bo'lib, badiiy-obrazlilikni kuchaytiradi. Umuman, badiiy asarlarda uchraydigan individual metaforalarni metafora hosil bo'lishi uchun asos bo'ladigan o'xshashlikning xarakteriga ko'ra asosan: a) umumiy o'xshashlik asosida hosil bo'luvchi; b) obrazli o'xshashlik asosida hosil bo'luvchi metaforalarga ajratish mumkin. Masalan, Tomir, qon so'zlari o'zbek adabiyotida predmetlar orasidagi umumiy o'xshashlik asosida metaforik ma'noda qo'llanilishi jihatidan ancha faol. Shu xususiyatga ko'ra, bu so'zlarning metaforik ma'noda qo'llanilishini an'anaviy deyish mumkin. Biroq bu so'zlar yordamida turli ijodkorlar tomonidan turlicha metaforik ma'no ifodalanganiki, bu hol ushbu metaforik ma'nolarning individual ekanligini ko'rsatdi.

Metafora nafaqat obrazli fikr ifodalovchi balki, fikrni aniq va ta'sirchan ifodalash vositalaridan biri hamdir. Chunki metaforik ma'noli so'z va so'z birikmalari ham til lug'at tarkibidagi asl ma'noli so'zlar singaridir. Ya'ni badiiy adabiyotda bir tushunchani ifodalashda birdan ortiq metaforik ma'noli so'zlar, metaforik sinonimlar qo'llanilganidek, bir metaforik ma'noli so'z, ya'ni metaforik omonim orqali birdan ortiq ma'no ifodalangan hollar ham uchraydi.



Rus olimi N.S. Valgina esa metaforalar bir-biriga o‘tib boruvchi uch xil ma’nolar yig‘indisidan iborat, deb hisoblaydi: 1) to‘g‘ri ma’no – faktual axborotni ifodalaydigan ma’no; 2) ko‘chma ma’no – konseptual axborotni ifodalaydigan ma’no; 3) qayta anglangan ma’no (ramz) – ichki axborotni ifodalaydigan ma’no; tag ma’no<sup>47</sup>. Berilgan tasnifdan bilishimiz mumkinki, uch xil ma’no birlashmasidan bizga tanish bo‘lgan metafora yuzaga keladi. Uning bir qismi bo‘lgan ko‘chma ma’no esa aynan konsept bilan aloqador. Ya’ni biz metafora deb hisoblashimiz mumkin bo‘lgan tushunchaning o‘z va ko‘chma ma’nolari mavjud. Uchinchisi – qayta anglangan ma’no pragmatik jihatdan e’tiborga olinadigan qism bo‘lsa, ko‘chma ma’noni konseptual jihatdan ko‘rishimiz mumkin bo‘lar ekan. Hozirgi vaqtda kognitiv metaforalar nazariyasi ko‘plab sohalarga tadbiiq etilgan bo‘lib, bilish, tushunchani kategoriyalashtirish, konseptuallashtirish, baholash va olamni tushuntirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi<sup>48</sup>.

Metafora qanchalik yangi, shunchalik ifodali bo‘ladi. Mohir so‘z ustalari o‘z asarlarida so‘zlarni metaforik ma’noda qo‘llash orqali ifodali, obrazli nutqning go‘zal namunalarini yaratadilar.

### **1. Ikki predmet o‘rtasida shakliy o‘xshashliklar tashqi ko‘rinish asosida:**

*Odamning og‘zi ( o‘z ma’nosida)*

*Tandirning og‘zi ( ko‘chma ma’noda)*

*Odamning qulog‘i ( o‘z ma’nosida)*

*Qozonning qulog‘i ( ko‘chma ma’noda)*

### **2. Ikki predmet qayerda joylashishi bo‘yicha ma’no ko‘chishi:**

*Itning dumi ( o‘z ma’nosida)*

*Samolyotning dumi ( ko‘chma ma’noda).*

Inson a’zolarining nomi boshqa narsalarga ko‘chadi. *Yer yuzi, kitobning beti, shishaning og‘zi, choynakning burni, dutorning qulog‘i*. Masalan : bosh, yuz so‘zlari ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi mumkin. *Otam yetimlarning boshini siladi* (A. Qahhor). Ushbu gapda bosh so‘zi majoziiy ma’noda ya’ni boshini silamoq unga

<sup>47</sup> Д.Худайберганава. Матнинг антропосентрик тадқиқи, Тошкент 2012: “Фан” нашриёти.Б-48

<sup>48</sup> Д.Худайберганава. Матнинг антропосентрик тадқиқи, Тошкент 2012: “Фан” нашриёти Б-49.

yordam bermoq, g'amxo'rlik qilmoq ma'nosida ko'chim turini hosil qilyapti. *Ko'chaning boshidan kimdir ko'rinardi.* Ushbu misolda esa, bosh so'zi qayerda joylashganligiga ko'ra ko'chma ma'noda qo'llanilyapti. Chunki odamning boshi ham tananing eng yuqori qismida joylashadi, ko'chaning ham eng yuqori qismi uni boshi hisoblanadi.

Harakat-holat (fe'l), belgi-xususiyat (sifat) lar ham o'xshashlik belgisiga ko'ra metafora asosida ma'no ko'chishiga uchraydi. Masalan *gapni gapga ulamoq, osmon ko'z yoshini to'kdi* (inson ko'z yosh to'kadi lekin yomg'ir majoziy ma'noda osmon ko'z yoshi ma'nosini ifodalayapti), xazon bo'lmoq (g'amga botmoq, maxzun bo'lmoq), *shirin xayol* (yoqimli xayol), *sovuq xabar* (yoqimsiz xabar) kabi. Shirin: shirin olma (o'z ma'nosida) - *shirin muomla* (yoqimli muomala, yoqimli suhbat, metafora asosida ma'no ko'chishi); Chiroyli: chiroyli guldasta (o'z ma'nosida) - *chiroyli muomala* (metafora asosida ma'no ko'chishi); Qurimoq: Ko'l quridi (o'z ma'nosida) - *Izi quridi* (yo'qoldi, ketdi, metafora asosida ma'no ko'chishi); Erimoq: Muz eridi (o'z ma'nosida) - *Onaning ko'ngli eridi* (majoziy manoda onaning ko'ngli yumshab qilgan ayblarini, xatolarini kechirdi, rahm qildi, metafora asosida ma'no ko'chishi).

*Lekin padari buzrukvoriga nisbatan shuncha zahar-zaqqumni ichida saqlab yurgani, oxiri chiday olmay oshkora maktubga to'kib solgani, loaqal yozdirayotganda munshiydan izo tortmagani unga qattiq botdi.* (Muhammad Ali. "Shoxrux Mirzo) Misolda **"zahar-zaqqum"** metaforasi orqali ya'ni Mironshoh Mirzo otasiga nisbatan ichida "zahar-zaqqumday so'zlarni" saqlab yurgani nazarda tutilmoqda. Bu metafora orqali asarmatniga obrazdagisalbiy bo'yoqdorlikni berish uchun foydalanilmoqda.

Shubhasizki, tabiiy hodisalar hayot hodisalariga qiyoslanganda ko'pincha, individual ifodalar hosil bo'ladi va bunday ifodalardagi badiiy obrazlilik yanada kuchli bo'ladi. Quyidagi tabiiy hodisalarni anglatuvchi so'zlar yordamida hosil bo'lgan individual metaforalar fikrimizning dalilidir. *Uning hayoti ham tiniq bir buloq bo'lib oqmaganimidi? Keyin bu buloqning ustiga jarlar qulab uni loyqalatdi.* (P.Qodirov. "Bobur") Bu gapdagi buloq, jar, loyqa so'zlari metaforik ma'noda

qo‘llanilgan. Ijodkor tiniq buloq metaforik birikmasi orqali “yaxshi, mazmunli hayot”ni ifodalasa, jarlar so‘zi orqali “bosqinchilarni”, loyqalatdi so‘zi orqali esa “iztirobli”, “tashvishli hayotni” ifodalagan. Ko‘rinib turibdiki, bu metaforik ifodalar nafaqat individualligi bilan, balki fikr ifodalash jarayonida predmetlar o‘rtasidagi botiniy o‘xshashliklarni topish va bu holatdan metaforik ma‘no hosil bo‘lishi uchun mahorat bilan foydalanilganlikni ko‘rsatadi.

*“...birov boqsa tanimas darvish qiyofasida, (o‘xshash kiyingan Muhammad Churog‘a dodxoh uzoqdan kuzatib yurardi) pinhona uch kun Samarqand bozorlarini aylandi, charchadim demadi. —Bozor - bir ko‘zgu,- derdi Sohibqiron. Unga boqib, el-ulus turmushini aniq bilib olg‘aymen. —Darvishlar ko‘p narsalarni taftishdan o‘tkazdilar, narx-navo bilan qiziqdilar. (Muhammad Ali. “Shoxrux Mirzo) Parchada keltirilgan “**darvishlar**” metaforasi ham xususiy-muallif metaforalari sirasiga kirib, tarixiy-badiiy asar matniga istorik koloritni berish uchun muhim uslubiy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Qolaversa, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, bu metafora leksik vositalarni tejash uchun ham ishlatilmoqda. Chunki bu yerda “*darvishday kiyingan kishilar*” ma‘nosi anglashiladi.*

*Burgut – Amir Sohibqiron, lochinlar esa dushmanlardir. Dushmanlar hamisha mana shu lochinlarday qochib jon saqlaganlar. (Muhammad Ali. “Shoxrux Mirzo) Bu misolda ham an’anaviy metaforalar qo‘llanilgan bo‘lib, muallif ularni bir gapda bir-biriga zid qo‘llash orqali ham obrazlarning yaqqol farqini ajratib, asarning emotsional-ekspressivligini oshirishga erishgan. **Bobom hamon tipirchilar, oyim rangi bo‘zday oqargancha** ko‘zi yumuq, boshini bir tomonga tashlab o‘tirar, bobom yelkasidan tutib turmasa, gursillab yiqilishi aniq edi. O‘z onamni elas-elas xotirlayman. Pastak shiftli uyda, deraza tagida nuqul osmonga qarab yotar edi. **Rangi sarg‘ayib**, ikki chakagi ich-ichidan kirib ketgan. Avval **rangi o‘chdi**. Keyin lablari pirpiray boshladi. Qiyiqchani yuziga bosdiyu, yelkalari titrab-titrab, birdan o‘zini namat to‘shalgan yerga otdi. (O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi”)* Bu misollar orqali personajlarning sog‘ligi yaxshi emasligini tushunish mumkin. Kishining rangi-ro‘yi nafaqat hissiyotlari haqida, balki sog‘lig‘i haqida ham ancha ma‘lumot beradi. Misollarda esa tushkun kayfiyat, xafagarchilik, qayg‘u hislari yaqqol

namoyon qilingan. Barcha misollarda rang kishining yuziga nisbatan va aksariyati hikoyachi tomonidan turli obrazlarning hissiy holatini tasvirlash uchun qo‘llanilgan.

*-Shundog‘, shundog‘! Ha-ha, xudoning buyurg‘oniga qanoat etmay, bir-birini chaqishga moyil juda ko‘p ilonu chayonlar ildizini ayovsiz qurutdim! Qo‘ymadimkim, biron bechora zolimning zulmidan ozor yesun.* (Muhammad Ali. “Shoxrux Mirzo) Bu parchadagi “ilonu chayonlar” metaforasi ham an’anaviy, lekin bundan ham muallif kontekstda o‘ziga xos ekspressivlikni ta’minlovchi vosita sifatida foydalana olgan. Bundan tashqari, bu metafora parchadagi leksik vositalarning tejalishiga, fikrning qisqa, lo‘nda, aniq ifodalanishiga xizmat qilmoqda.

*Ha, rost aytasiz, tilla yigit, yigitlarning tillasiydi. Ollohning buyurgani shu ekanda, jannatdan joy ato etsin! Axiy Jabborning dili uvishdi.* (Muhammad Ali. “Shoxrux Mirzo) “Tilla” metaforasi orqali kishiga nisbat berilib, uni yigitlarning eng yaxshi, eng sarasi, bebahosi ekanini mana shu birgina so‘z orqali obrazli tarzda berilib o‘tilmoqda. Bunda predmetning sifat jihati asos qilib olingan.

*Haligina biznikida «ma‘lum oshi» berib quvongan odamlar uyga kirishi bilan boshiga tog‘dek kulfat tushsa! Boshiga tog‘dek g‘am tushib turgan Potma-Zo‘ra kelinlarga shunaqa paytda yordam bermasa, qachon beradi!* (O‘. Hoshimov “Ikki eshik orasi”) Bu missollarda personajlarning hissoytlari boshqa bir kishiga yoki narsaga nisbat namoyon etishida *tog‘ so‘zli metforalarning* tahlilida ko‘rish mumkin. Ikki misolda esa, “tog‘dek” so‘zi qatnashgan vaziyatlarda personajning inkor hissiyotlarini anglash qiyin emas. Ya’ni, “tog‘dek kulfat” va “tog‘dek g‘am” sinonim iboralari iztiroblanish ma’nosini kuchaytirib beradi.

*-Qutlaymiz! - dedi Sohibqiron Shohrux Mirzoga. – Siz Xurosonda suyanchig‘imsiz, o‘g‘lim, o‘zim Hirotdan jilmasligingizni buyurdim, o‘zim! Zero Tabrizdagi, Sherozdagi, Bag‘doddagi amirzodalar sizning qudratingiz taftidan bahra olib tururlar.* (Muhammad Ali. “Shoxrux Mirzo) Bunda “suyanchiq” metaforasi orqali Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li Shohrux Mirzo nazarda tutilmoqda. Bu orqali esa matnda “suyanchiqdek o‘g‘limsiz” degan ma’no ifodalanmoqda. Bu metafora ham asar matniga mos tushgan.

Obrazli o'xshashlikka asoslanilgan metaforalarda o'xshashlik predmetlar uchun umumiy va konkret belgiga asoslanmaydi. Shu boisdan ham bunday metaforalar ko'pincha yashirin o'xshashlik asosida vujudga keladi va obrazlilikni kuchaytirish vositasiga aylanadi. Masalan, *Zerokim, Movarounnahr elini chulg'agan bu zulmat qanchalik cho'zilmasin, bir kun emas, bir kun qora bulut tarqab, oftob chiqajakdur.* (O.Yoqubov. "Ulug'bek xazinasini") Bu gapda uchta metaforik ifoda mavjud. Ma'lumki, zulmat so'zining asl ma'nosi "qorong'ulik". Ushbu gapda zulmat so'zi orqali ifodalanayotgan metaforik ma'no "qora kunlar, yomon kunlar" bilan shu so'zning asl ma'nosi orasida muayyan bog'liqlik mavjud bo'lsa ham, metaforik ma'no obrazli o'xshashlik asosida vujudga kelgan. Chunki metaforik ma'no hosil qiluvchi so'zning asl – "qorong'ulik" ma'nosi "qora kunlar"ga qiyos qilinganki, bu qiyosda umumiy o'xshashlikka emas, balki obrazli o'xshashlikka asoslanilgan. Ushbu gapdagi ikkinchi metaforik birikma qora bulut asosan, "urush", "yomon kunlar" ma'nolarini ifodalagan, shu ma'noda bu metaforik birikmani individual metaforik birikma deb bo'lmaydi. Shahar osmonida aylangan qora bulutlar tarqab, baayni quyosh chiqadi. (Sh.Xolmirzaev. "Qil ko'prik") gapidagi qora bulut metaforik birikmasi orqali ham "urush" ma'nosi ifodalangan. Biroq yuqoridagi gapdagi oftob chiqajak hamda ushbu gapdagi quyosh chiqadi metaforik birikmalari "yaxshi kun" ma'nolarini ifodalovchi aynan bir xil ma'noli vositalar bo'lsa ham, individual so'z qo'llanilishini ko'rish mumkin. Zero, birinchi gapda quyosh so'zining og'zaki nutqqa xos bo'lgan oftob sinonimining ishlatilishi individuallik kasb eta oladi. Shuningdek, qora bulut metaforik birikmasi "yomon niyatli kishilar" ma'nosini ifodalagan hollar ham mavjudki, bu metafora ham obrazli o'xshatish asosida vujudga kelgan individual metaforadir. Bu qora bulutlar uning atrofiga qayoqdan keldi? Yasoq. – deb qichqirayotgan har darg'azab bek Boburdan quyoshni to'sib olgan bir qora bulutga o'xshaydi. Boburni chirmab aylantirayotgan dahshatli quyosh mana shu qora bulutlarning shamoli emasmikan? (P.Qodirov. "Bobur") Matnda qorabulut birikmasi uch o'rinda ishlatilgan va har uch o'rinda ham yozuvchi Bobur atrofidagi beklarni ifodalashda qora bulut birikmasini qo'llaydi.

Faqat bir o‘rinda beklar qora bulutga o‘xshatilgan. Qolgan ikki o‘rinda birikma ma'nosi ko‘chgan va Bobur atrofidagi qora niyatli kishilarni ifodalagan.

*Ajabtovur bejamali zardo‘zi kashta osilgan, munaqqash qubbali baland eshigi tepasida zarhal uch halqasi yarqiragan saltanat bayrog‘i mag‘rur hilpiraydi.* (Muhammad Ali. “Shoxrux Mirzo) Bu parchadagi “mag‘rur” metaforasi asar matnida o‘ziga xos subyektni ifodalayotgani bilan ahamiyatlidir hamda gapdagi ortiqcha leksik vositalarning qo‘llanilishi va kitobxonni asardan zerikishi kabi holatlarni, ko‘p bayonchilikni bartaraf etish funksiyasini bajarmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir asarning sahnasida, har bir qahramon nutqida metaforani kuzatishimiz mumkin bu esa asar tili jozibadorligini oshirib, qahramon harakteridan kelib chiqib uning dunyo qarashi va qalb kechinmalarini yaqqol ochib berishga xizmat qilgan. Tahlillar jarayonida shuni ko‘rishimiz mumkinki, muallif bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, personajlarning kayfiyatlarini metafora stilistik vositasida yordamida naqadar mohira yetkazib bera olganini ko‘ramiz. Xullas, individual metaforalarning badiiy-obrazlilikni uning mazmuniga daxldor bo‘lib, so‘z yoki so‘z birikmasi matnda mazmunan poetiklashadi. Shu boisdan ham so‘zning metaforik ma'no ifodalashi uchun matn (kontekst) muhim.

### **BOB BO‘YICHA XULOSALAR**

1. Konseptual metafora inson tajribasining butun sohasini qamrab oladi va muhim kognitiv imkoniyatlarga ega degan qarash hozirgi paytda konseptual metafora bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarda o‘z ifodasini topgan. Xususan, V.Budayev, A.P.Chudinov kabilarning ilmiy nashrlarida konseptual metaforaga sharhlar berilgan.

2. Metaforaning badiiy nutqda badiiy-obrazlilikni kuchaytiruvchi tub mohiyati shundan iboratki, metafora mavjud matnlarda boshqa vosita bilan fikrni metafora orqali ifodalagandek ifodalash imkoni bo‘lmaydi. Metaforaning boshqa lingvistik vositalardan farqli ravishda ma‘noni yashirin tarzda ifodalashi, narsa-hodisani xarakterlashda taqqoslash, chog‘ishtirish kabi holatlarning mavjudligi bu vosita orqali takrorlanmas fikr ifodalash uchun sharoit yaratadi.

3. Metafora nafaqat obrazli fikr ifodalovchi balki, fikrni aniq va ta'sirchan ifodalash vositalaridan biri hamdir. Chunki metaforik ma'noli so'z va so'z birikmalari ham til lug'at tarkibidagi asl ma'noli so'zlar singaridir. Ya'ni badiiy adabiyotda bir tushunchani ifodalashda birdan ortiq metaforik ma'noli so'zlar, metaforik sinonimlar qo'llanilganidek, bir metaforik ma'noli so'z, ya'ni metaforik omonim orqali birdan ortiq ma'no ifodalangan hollar ham uchraydi.

### **III BOB. O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA METAFORALAR**

#### **3.1-§. Saida Zunnunova she‘riyatida metaforalar**

Saida Zunnunova go‘zal va dardli she‘rlar yozgan shoira edi. Uning she‘rlarida o‘zbek ayollariga xos vafo, sadoqat, mehr-muhabbat ufurib turadi. Shoira “Qizingiz yozdi”, “Yangi she‘rlar”, “Gullar vodiysi”, “Qizlarjon”, “Bir yil o‘ylari” kabi she‘riy to‘plamlari orqali inson qalbining nozik qirralarini ochib beradi. Saida Zunnunova she‘rlarida keng qo‘llangan uslubiy vositalardan biri metaforadir. Badiiy tildagi obrazlilikni yuzaga chiqarishda, voqea-hodisalarning aniq, ishonarli va yorqin tasvirlanishida metaforaning o‘rni beqiyos.

Metafora tasviriy vositalarning juda qadimiy ko‘rinishlaridan biridir. Antik ritoriklardan boshlab nutqning bezagi sifatida keng o‘rganilib kelingan metaforaning nutq jarayonidagi, xususan, badiiy nutqdagi vazifasi, xilma-xil bo‘lib, bu metaforaga muhim tasviriy vosita sifatida yondashishga olib kelgan. Shu boisdan ham badiiy nasr tahlili haqida fikr yuritilganda, metaforani, uning nutqiy xususiyatlarini nazardan chetda qoldirish mumkin emas.

Metaforaga badiiy nutqning obrazlilikini ta‘minlovchi vosita sifatida qarash fanda keng tarqalgan. Biroq badiiy matn hatto butun asar matnida ham ba‘zan metaforalarni uchratmaslik mumkin. Bu hol ushbu matnlarning badiiy-obrazlilikka ega emasligini ko‘rsatmaydi. Zero, metafora birinchidan, obrazlilikka xizmat qiluvchi nutq hodisalaridan biri, xolos. Ikkinchidan, metafora faqat obrazlilikni vujudga keltiruvchi vosita emas, balki badiiy shaklni shakllantiruvchi vosita hamdir. Metaforaning nutq jarayonidagi vazifasi uning xarakteri bilan bog‘liq. Binobarin, ma‘no ko‘chishi badiiy-obrazlilikni, ta‘sirchanlikni vujudga keltirish uchun asos bo‘lsa ham, barcha ma‘no ko‘chish vositasini qo‘llashda nutqiy ta‘sirchanlikni ta‘minlash ko‘zda tutilmaydi. Ammo har qanday ma‘no ko‘chishi nutqda sezilarli darajada jozibalilik baxsh eta oladi.

Metaforaning badiiy nutqda badiiy-obrazlilikni kuchaytiruvchi tub mohiyati shundan iboratki, metafora mavjud matnlarda boshqa vosita bilan fikrni metafora orqali ifodalagandek ifodalash imkoni bo‘lmaydi. Metaforaning boshqa lingvistik



vositalardan farqli ravishda ma'noni yashirin tarzda ifodalashi, narsa-hodisani xarakterlashda taqqoslash, chog'ishtirish kabi holatlarning mavjudligi bu vosita orqali takrorlanmas fikr ifodalash uchun sharoit yaratadi. Metaforaning nutq jarayonidagi qimmatini uning takrorlanmasligida ekanligi haqidagi bunday fikrlar ko'pgina filologlar, jumladan B.V.Tomashevskiy hamda K.A.Dolininlar tomonidan ham qayd etilgan. Chunonchi, B.V.Tomashevskiy fikrni o'xshatish, metafora va sifatlash orqali ifodalash haqida so'z yuritar ekan shunday yozadi: "Alohida ajratib ko'rsatish lozim bo'lgan narsaning belgisini oddiy ifodalash hamma vaqt ham ta'sirchanlik talablariga javob bera olmaydi. Kishida hissiyot uyg'otish uchun belgi haqida aniq tasavvur hosil qilish kerak, qachonki shu belgi esda qolsin yoki diqqatni jalb etsin. Shuning uchun ba'zan narsaning belgisi boshqa narsa yoki hodisaning xuddi shunday taqqoslanish asosida metafora, o'xshatish kabi badiiy vositalar vujudga keladi va fikrni yorqin, obrazli, ta'sirchan ifodalash imkoniyati tug'iladi.

"Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasida o'xshashlikka asoslanib, so'z va iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforadir."<sup>49</sup>

Nutq jarayonida metaforalardan o'rinli foydalanish nutqimizni ta'sirchan, jozibali bo'lishini ta'minlaydi. Saida Zunnunova she'rlarida metaforadan unumli foydalangan.

*Sira chidolmayman, quvnoq chehrangda,*

*Qayg'uning sharpasi kezsa bir nafas.*

*Ko'nglimga tikandek og'ir botadi,*

*Sening yo'llaringda ko'rsam xor-u xas.<sup>50</sup>*

---

<sup>49</sup> R.Qo'ng'urov va boshqalar "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari". Toshkent: O'qituvchi, 1992. 97-b.

<sup>50</sup> S.Zunnunova "She'rlar". Toshkent: "Fan", 1974. 18-b.

Shoira bu misralarda cheksiz mehr-muhabbatni aks ettiradi. Ya'ni uning doim kulib turadigan chehrasiga qayg'uning soya solishiga chidolmaydi. Yo'llaridagi xor-u xas ham ko'ngliga tikandek og'ir botadi.

Saida Zunnunovaning "Qizlarjon" she'riga nazar solsak, ta'sirchanlikni oshirishda metafora asosiy rol o'ynagan.

*Sevgi o't tashlasa yuragingizga,  
Oydin tun bermasa tinchlik va uyqu.  
Olam kuylaganday ko'rinsa sizga,  
Hamda asir etsa ajib bir tuyg'u.*

Ushbu misralar orqali shoira qizlarga murojaat etib, turli o'xshatishlar orqali ularning qalbida kechayotgan nozik tuyg'ularga hamdard bo'lishni istaydi.

*Qirda lolalarning bag'riga sho'ng'ib,  
Bahor hidlarini simirgansimon.  
Har kuni sarxushman, har kuni shodman,  
Chunki men insonman, insonman, inson!*

Shoira mazkur misralarda "lolaning bag'riga sho'ng'ib", "bahor hidlarini simirgansimon" kabi o'ziga xos metaforalarni qo'llab, inson ekanligidan shodligini yanada ta'sirchan qilib ko'rsatib berdi.

Saida Zunnunovaning "Yoshlik" she'riga qarasak, unda ham ajoyib til vositalaridan foydalangan:

*Eh yoshlik, umrning go'zal dilbari,  
Behisob zafarlar, baxtlarga yorsan,  
Yoshlik, sen bir umr ketmaysan nari,  
Shu qadar iqbolga tolega boysan,*

*Hayotning ko'kida eng to'lin oysan.*

Yoshlik - chindan eng go'zal davr. Inson hayotining eng go'zal damlari xuddi shu paytga to'g'ri keladi. Shoir uni umrning go'zal dilbari va to'lin oy deb tasvirlaydi.

*Uchrashuv onini kutib betoqat,*

*Qalbm talpinardi, senga, azizim.*

*Minutlar sudralib, go'yo o'tmay vaqt,*

*Shirin bir azobda o'rtanar edim.*

Ijodkor mahoratini qarangki, ushbu misralarda metafora bilan birga poetik ko'chimlardan zidlov ko'chim turiga kiruvchi oksimoron usulidan (shirin bir azob) foydalangan, ya'ni ikki zid ma'noli tushunchani ishlatib, ijodkor yangi ma'no keltiradi va shu yo'l bilan o'z fikrini o'quvchiga yetkazishning qulay yo'lini tanlaydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Saida Zunnunova o'z she'rlarida ko'plab metaforalarni qo'llab, o'z fikrlarini o'quvchilariga tez va tushunarli bo'lishini ta'minlagan. U qo'llagan metaforalar she'rlarini yurakka yaqinlashtirib, ta'sirchanligini yanada oshirgan.

### **3.2-§. Usmon Azim ijodida metaforik obrazlar**

Uning peyzaj lirikasi tasavvufiy, falsafiy, intim va ijtimoiy yo'nalishda bo'lib, unda ramziy va metaforik obrazlar yetakchiligi kuzatilgan. Shoir ijodida "bog" obrazi alohida metaforik tabiatga ega. "Bog'ning har bargi-yu, butog'ida sanoqsiz she'r bor"<sup>51</sup> deydi shoir. Bog', daraxt, barg unsurlari orqali tabiat va inson hayotining turli qirralari, qalbidagi kechinmalari tasvirlangan. "Sahrodagi daraxt", "Bir daraxtning so'nggi qo'shig'i" va "Hayot qo'shig'i" kabi she'rlarida inson

---

<sup>51</sup> Usmon Azim. Sўngsўzlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – B. 93.

hayoti daraxtga ko‘chirilgan. “Hayot qo‘shig‘i” she‘rida ikki insonning muhabbat taqdiri, armon va taqdir hasratlari bog‘da bir-biridan uzoqda turgan ikki daraxt holatiga ko‘chirilgan. “...bahor kelganida Ochilish” “Gulu meva xazon to‘kib Sochilish kerak”ligi – bu aslida inson hayotining haqiqatlaridir. “...*Yerga bog‘lab qo‘yilganman, Ildizim yer ostida. Kechalari shovullayman, Boqib bo‘yi bastingga*”. Shoirning muhabbat, armon, ayriliq mavzusidagi she‘rlarida “taqdirlar davomi va yillar orzusi”<sup>52</sup>, “g‘ussa ranglari va ohanglari”<sup>53</sup> surati bor. “Ikki daraxt” – mangu hijronning nihoyatda ma‘sum ramzi. Tutqunlikdagi qalbning armonli suvrati...”<sup>54</sup>.

Shoir kuz bilan bog‘liq peyzaj she‘rlarida tasavvufiy ohanglarni ham singdirib yuboradiki, bunday tasvirlar mohiyatini yoritish, o‘rganish alohida mavzu doirasida tadqiq etilishi joiz. Keng qo‘llanilgan *barg* ramz metaforasi inson hayotiga mos fojeaviy tasvirlar yaratishda yetakchi poetik ko‘chim sifatida tabiat hodisasi va inson umri muqoyasasi hamda tasavvufiy-falsafiy fikrlarni keltirishga xizmat qilgan. Nogohon novdadan uchdi bir yaproq – Bu bargga tuproqqa qo‘nmoq cheksizdir. (*Usmon Azim. Saylanma, 391 bet*). “Novdadan uchgan yaproq”ning har kuzakda tuproqqa jo bo‘lishidan (“Nahotki barglar ham qaytmas dunyoga!”) insonning ham boqiylikdan fano sari ketishida qaytmoqlikning yo‘li yo‘q. Buyuk fors shoiri Sa‘diy Sheroziy yozadi: “Hushyor kishi nazdida yashil daraxtlarning har bir yaprog‘i Yaratuvchi ma‘rifati daftarining bir varag‘idur.”<sup>55</sup>

Taniqli munaqqid Bahodir Karim “... metaforada badiiy mantiq, qarini, ma‘ni, his-tuyg‘u yetakchi bo‘lishi kerak”<sup>56</sup> deb yozadi. Bir o‘qishda sof tabiat lirikasi ifodalagandek bo‘lgan “Qizg‘aldoqzor”, “Yam-yashil tanini shamol supurdi”, “Dashtda bahorning mast Qizg‘aldoqzori” deb boshlanuvchi she‘rlarida Qizg‘aldoq metaforasida Hayot go‘zalligi, yashashga ishtiyoqlik va umr g‘animatligi haqida chuqur falsafiy fikrlar yotadi. **Qizg‘aldoqzor** qonli daryosin Aylanadi otlar shatirlab. (*Usmon Azim. Kuz, 268-bet.*) “Yigirma beshinchi

---

<sup>52</sup> Абдуллаев А. Шеъримда узок бир ишкнинг шархи бор (Усмон Азим шеъриятига чизгилар) // Шарк юлдузи. 2010. №5. – Б. 175.

<sup>53</sup> Каримов Н. Некбин рух, ҳаётсевар ғоя. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010.19.11. №47.

<sup>54</sup> Қўшшаева И. Ерга қўнмайдиган қушлар бормикан? / Ижод олами, 2018. №3

<sup>55</sup> Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Ҳикоятлар ва ҳидоятлар/ О.Давлатов насрий баёни. – Тошкент: О‘zbekiston. 2015. – Б. 215.

<sup>56</sup> Каримов Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом, 2018. – Б. 100.

yil” deb nomlangan she’rdagi mazkur misralar nomlanishidayoq o’tmish manzaralari, XX asrning birinchi choragida “bosmachilar harakati” deb nom olgan o‘z yurtiga ega chiqqan mustamlakachilarga qarshi kurash olib borib, “bosmachi” deb tang‘alangan yurt fidoyilarining shonli kurashlarini aks ettirgan. Tarixda qolgan bu qonli kurashning qirg‘inbarot bo‘lganligi yuqoridagi metaforik tasvirda umumlashtirilgan.

Shuningdek, shoir peyzaj lirikasida jamiyat va davr muammolarini “Bolalikdan ikki xotira” she’rida qish, “Yoz” sarlavhali she’rida saraton metaforik obrazlarida tasvirlagan. “Yoz” she’ri birinchi bandida daryo qirg‘oqlarida “tani qilt etmay” mudrab orom olayotgan, ismini aytishga erinayotgan “saraton” – “o‘smir” uxlagan, ikkinchi badda u uyg‘ongan bo‘lsada, “o‘z ismini unutib qo‘y”gan: Tush. Saraton ketmon chopar jim — U ismini unutib qo‘ymish...(Usmon Azim, *Saylanma*. 103 bet.)

Jazirama tushda ketmon chopayotgan o‘smir o‘quvchida achinish uyg‘otadi. O‘tgan asrning ijtimoiy hayotida keng ildiz otgan bilimsizlik, o‘z tarixini, o‘zligini bilmaslik, “paxta” dalasida ulg‘aygan avlod fojiasi Yoz manzarasi fonida tasvirlanadi. Ushbu she’r Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanidagi Dehqonqullar hayotini eslatadi. “*Metaforik obrazlarda tasviriy vositalarning qo‘llanilishi*” deb nomlangan ikkinchi faslda shoir badiiy mahorati, metaforik obrazlar va assotsiativlikni yuzaga keltiruvchi tasvirlarda metafora (istiora) bilan birga tanosib, tashxis, tashbeh, talmeh, mubolag‘a, tazod, sifatlash, parallelizm kabi badiiy tasvir vositalarining bir vaqtda qo‘llanilishi asosiy jihatlardan ekani asoslab berilgan. Mumtoz she’riyatimizning buyuk namoyandalari Atoyi, Lutfiy va Alisher Navoiy she’rlaridagi badiiy san’atlarni yodga soluvchi satrlarida ularni bir nechtadan ortiq qo‘llaydi: “*Ey, gul! Ey gul! Bir qaragin!... – ayladim nido, Bulbulmassan dedi ul gul, - Etmadi parvo*”.

Gul istiorasi orqali yorga murojaat qilib, shoir savol-ujavob, nido va tanosib san’atlarini qo‘llagan. Ikki qoshing – ikkita qanot, Ikki ko‘zing – ikki umidqush. Qay umrni aylading barbod, Labing nega qondir, yirtqich qush?! (*Azim U. Kuz*, 120-bet.) Qosh, ko‘z, lab – qo‘llanilishi tanosibni, Ikki qosh, Ikki ko‘z – “ikkita qanot,

ikki umidqush” tasviri esa husni ta’lil (“husn - ko’rk, chiroy; ta’lilasoslash, isbot, vaj so’zi” arab tilidan olingan bo’lib, asoslash ko’rki yoki chiroyli asoslash degan ma’noni bildiradi), qoshning qanotga o’xshatilishi tashbihn, “ikki ko’zing – ikki umidqush” tasviri esa istiora, ikki so’zining har ikki misrada takror qo’llanilishi so’z takrorini vujudga keltirgan. Keyingi ikki misrada ham shoir mumtozlar yo’lidan borib, “Qay umrni aylading barbod” – tajohul ul-orif (“bilib turib bilmaslikka olish”), “Labing nega qondir, yirtqich qush?” satrida yirtqich qush – istiora san’atini qo’llagan. Adabiyotshunos A.Abdullayev aytganidek: “Shoir so’zda tanosub san’atiga qattiq rioya qiladi. Uning she’rida har bir so’z, ta’bir, ibora uslubiy hamohanglikka ega va shu sabab ular marjonga o’xshab ketadi, ravon va musalsal o’qiladi, o’quvchi diqqatini tortib, boshdan nihoyasigacha langar kabi mavzun va musiqa kabi muassir va muqtadir she’rlar sarasini eslatadi”.

Butoqda shamol yirtdi,

Shovullagan sharfini.

Barglar uchdi havoga,

Chizib Xitoy harfini. (*Azim U. Kuz, 203-bet.*)

Ushbu she’riy parcha o’xshatishga asoslanib, shamol esayotgandagi ovoz – butoqda shovullagan sharfni yirtishga qiyoslangan va jonlantirish (“Barglar uchdi havoga”) bilan bir vaqtda havoda kuzgi barglarning to’kilishi – piktografik ko’rinishdagi Xitoy harfini chizishga (yozishga) o’xshatilgan.

Shoir she’rlarida bir nechta badiiy tasvir vositalari bir vaqtda qo’llanilganligi bilan alohidalik kasb etgan. Bu nafaqat uning tug’ma iste’dodini, balki ona tilimizdagi ma’no nozikliklariga ega bo’lgan so’zlardan foydalanish mahoratini ham ko’rsatib bergan.

Jonsiz vajonli narsalarga inson tabiatiga xos xususiyatlarni ko’chirish asosida shoir turli xil individual metaforalar yaratgan. Muayyan ko’chma ma’nodagi bunday obrazlar uning she’rlaridagi mushohadalilik va sirlilikni ta’minlashga, o’quvchining nozik badiiy ilg’amini o’stirish, uning tuyg’ulariga emotsional ta’sir o’tkazishga xizmat qilgan:

## 1.1-jadval

<p>1.Narsa-predmet bilan bog'liq metaforik obrazlar</p>	<p>2.Tabiatdagi to'rt unsur (olov, tuproq, havo, suv bilan bog'liq metaforalar</p>	<p>3.Allegorik metaforik Obrazlar</p>	<p>4.Antonomaziya metaforalardan (tarixiy shaxslar va badiiy asar qahramonlari</p>	<p>5.Ranglar metaforasi</p>
<p>Ayvon. Stol. Qog'oz. Ruhning ertagi – <b>Chiroq</b> she'r yozmoqda ayvonda...<b>Chiroq</b>. Bir <b>chiroq</b> dunyoga Ba'zan qorovul – Chiroq – ijodkor, shoir timsoli.</p>	<p>Qara, kuyib bitgan jonimga qara, So'zimga qaragin: ushlang – <b>olov</b>. Ijodkor tabiati va ijod mahsuli.</p>	<p>Derazada zanglar yemirgan Panjaralar, tashqarida – <b>it</b>– <i>sotqinlar deb</i> “Bo'ri” <i>deb chaqirdim qilmadi parvo, It! Dedim qaradi ishonasizmi?</i> Xushomadgo'ylar</p>	<p>Faqat podshohlarni O'stirgan ayol – Saroymulxonim – Mamlakat shoni. Va birdan anglaysan, Sen ham bir <b>Kolumb</b></p>	<p>Dunyo kabi ko'nglim yorishsin, Qon ichida kulgu yarat...Kul! Lablarimda manim ochilsin Shafaq rangli g'uncha – qizil gul.</p>
<p>Voh ! Zo'riqdim qon yutdim! <b>Qafas ichiga qafas!</b> Qafas – tutqinlik, erk ozodlik g'oyasini ifodalagan.</p>	<p><b>Buncha og'ir bo'lmasang, tuproq</b> ...Bilasan tinchgina uxlaymiz Sovuq bag'ringga bosganingdan so'ng Tuproq–sabr va so'nggi makon.</p>	<p>Yozda qorayadi quyon. Qishda junlari oppoq. Fasllarga qarab o'zgaradi shunday. Sharoitga moslashadigan buqalamun kimsalar</p>	<p>“Men – Otello – Yagolar bilan g'iybat qilib turibman seni. Shomgacha g'amlarini ishga aytishar, Tonggacha sog'inchin tushga aytishar <b>Ikki Laylisheva</b> – ikki sho'rsheva</p>	<p>Yo'q, faqat <i>sariqdan</i> iborat emas kuzning rangi. <b>Sarig'i</b> – yuz turfa. <b>Qizg'ishi</b> – ming xil. <b>Qirmizi</b> – ming xil. <b>Jigarrang</b> barglarni ham topasiz.</p>
<p>Magar yo'ling <b>devor</b> to'ssa,</p>	<p>Chorbog'larga yiqilar</p>	<p>999 yoshdan 364 kun oshgan</p>	<p>Kuylab qoldi kimdir – tayin!</p>	<p>Qip-qizil olma. Yoniga oltin</p>

qayg‘urmagin, mard yigit. Yigit kishi bir zo‘r bersa qulab tushar <b>devorlar</b> – <i>to‘siq, Hayotdagi qiyinchilik</i>	so‘lg‘in, <b>Shamol</b> bevaqt qurigan yaproq. Shamol mustabidlik.	<b>qarg‘a</b> Yong‘oq ko‘maypti ertasi uchun. Ochko‘zlik illati.	<b>“Abdurahmonbegi”n</b> i.	uzum chizaman. Uning yoniga anor – Hayotga to‘yganidan yorilib ketgan bo‘ladi anorning vujudi.
--	---	--	--------------------------------	---

She‘riyat va rang-tasvir san‘ati sintezlashuvini o‘rgangan S.Quronov “Xurshid Davron, Shavkat Rahmon kabi Usmon Azim ijodida ham ular ...uyg‘unligining eng go‘zal mevalarni ko‘rish mumkin. ...rangtasvir san‘atiga xos bo‘lgan unsurlarning she‘riyatga ko‘chishi, undagi tasviriy ifodaning xuddi rassom chizganiday bera olishlik imkoniyatini yaratdi. Albatta, bunda ranglar emas, so‘zlar vositasida chizilgan surat ijodkor mahorati evaziga xayollarda gavydalanadi”<sup>57</sup>, deydi. “Natyurmort”, Kuzni sevasizmi...” deb boshlanuvchi she‘rlarida sariq, qizil ranglar sifatlovchi bo‘lishi bilan birga metafora vazifasida kelgan: “Yo‘q, faqat *sariq*dan iborat emas kuzning rangi. *Sarig‘i* – yuz turfa. *Qizg‘ishi* – ming xil. *Qirmizi* – ming xil. *Jigarrang* barglarni ham topasiz”. She‘rda *barg* – inson yuragining ramzi, undagi “yuz turfa “sariq”lik shu qalbdagi kechayotgan hislar va so‘ngan tuyg‘ular, “ming xil” “qizg‘ish” inson tuyg‘ulari otashi va shavqi, “Kuz” esa abadiy ayriliqni, “qirmizi” “ming xil”lik qalbdagi tuyg‘ularning evrilishlari bo‘lsa, “Qon bo‘lgan jigarday” “jigarrang” metaforasi inson qalbiga entikish va hayajon soladigan mo‘jaz tuyg‘u – sog‘inch ifodasidir. XX asr 60-70-yillar she‘riyatining mazmun-mohiyatida, asosiy tasvirlash obyektida erk va ozodlik g‘oyalarining aks etishi va bu davrda ijod qilgan Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon kabi

<sup>57</sup> Қуроноу С. Ифода ва ифодавийлик. / Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Академнашр, 2016.– Б. 31.



ijodkorlar she'rlarida ham ushbu g'oyalar ifodasida metaforik obrazlarga qiyosiy tahlillar keltirildi.

Ushbu bobning “*Obraz darajasidagi metaforalar tabiati*” deb atalgan ikkinchi faslida shoir she'rlarida Kuz, Chiroq, Tog‘, Dasht, Baxt, Yomg‘ir obrazlarining metaforik tabiati yoritilgan. CHO‘lpondan so‘ng Usmon Azim Kuz timsoliga eng ko‘p murojaat etadi. CHO‘lpon ijodida Kuz obrazi millat fojeasi, yurt taqdiri ramzi hamda u “orqali aksar hollarda shoir qalbidagi dard, uni qiynagan iztiroblar, orzu va armonlar ziddiyati, Vatan va millat qismati badiiy talqin etilgan”<sup>58</sup>. Hazrat Navoiydan tortib, CHO‘lpon an‘analarigacha davom ettirgan shoir she‘riyatida Kuz obrazi yangicha poetik ifoda kasb etgan. Munaqqid aytganidek Kuz “...shoir Usmon Azimning qalb kechinmalarini turli rang va bo‘yoqlarda aks ettirishga xizmat qiluvchi obraz darajasiga ko‘tariladi”<sup>59</sup>. Shoir ijodida Kuz obrazi quyidagicha metaforiklik xususiyati namoyon bo‘lgan:

1. Yurt taqdiri bilan bog‘liq she'rlarida Kuz metaforasi;
2. Inson ruhiyati, kechinmalari ifodasida Kuz.

“Kuzgi bog‘i” turkumida shoir “Ey, yetmish yil *xazon* tergan yurt” satrida “paxta” uchun egilgan xalqimiz fojiasini *xazon* metaforasida ko‘rsatadi. “Bolalikdan xotira” she‘rida mazkur metafora mustabid tuzumning xalqimiz boshiga solgan “qora kunlari” tarixini yoritgan. Kuz Tog‘u dashtga yetgan. Kuz qismatimni aylagan payhon: tog‘lar oshib, paxta terimiga ketgan, Otam vafot etgan allaqachon. CHO‘l bor bu baland tog‘lardan narida, Tog‘lardan haydalgan Boysun unda sarson. “Paxta zarur!” degan zulmning qahridan Qutilmoq beimkon. (*U. Azim. Ko‘ngil, 34-bet.*)

Uning ijodida “Bolalikdan ikki xotira” she‘riy turkumi mavjud bo‘lib, unda “Qish” va “Yoz” fasli fonida shoir bolaligining qisqa va g‘amgin “tarjimai holi” berilgan. Ushbu she‘rni ham shu turkumiga kiritish mumkin. Qish va Yozdan farqli Kuzda tasvirlangan bolalik yillari “uzun va

---

<sup>58</sup> Хожиева Ш. Чўлпоннинг пейзаж яратиш маҳорати. / Тил ва адабиёт таълими, 2019. №4. – Б. 34.

<sup>59</sup> Солижонов Й. Кўзгудаги ҳаёт: адабий-танқидий мақолалар, суҳбатлар. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2013. – Б. 88.

munгли bir qissa” yozilgandek o‘qiladi. Birgina “Kuzning sitami” metaforasi sobiq tuzum yuritgan adolatsiz siyosatning yorqin ifodasi bo‘lsa, “Tog‘lardan haydalgan Boysun unda sarson” metaforik tasvirida yangi o‘zlashtirilgan yerlarga odamlarning o‘zi yashab turgan hududlardan ko‘chirilishi, xalq turmushi qiyinchiliklari aks etgan.

Shoirning “Kim deding?...” deb boshlanuvchi she’rida inson umr bosqichi o‘ziga xos metaforiklikda tasvirlangan: “Bahorda tug‘ilgan yaproq”ning sarg‘ayish holati ko‘z oldimizga kuz manzarasini jonlantirish bilan birga tug‘ilish, o‘shish, yoshlik va nihoyat qarilik pallasida turgan inson timsolini yaratadi. She’rda yoyiq ifodalangan kuz metaforasida inson va uning Hayoti tadrijiy gavdalantirilgan: “Kuz yo‘q (yig‘layapman)...Kuz yo‘qdir biroq Qirq uch bahorimni men ham ko‘mganman”. “Chiroq haqida ballada” she’rida *chiroq* ijodkor shaxsini yorituvchi metaforik tabiatga ega. “Bizni baxt yaratgan.” she’rida Ona timsoli Baxt mavhum otiga ko‘chirilgan. She’r Onaga bag‘ishlab yozilgan “sokin qasida”. Unda farzandlik oqibati haqida so‘z boradi. “Boysun”, “Tog‘” va “Dasht” obrazlarini yuqori pardada kuylagan shoir ushbu obrazlarga yangicha poetik vazifa yuklaydi: “ – *Tog‘im*, umr ketmay uchrashaylik tez, – Umrning kitobi qariyb o‘qildi – *Dashtim*, ko‘rishaylik, tezroq kel, bu yon!” Uning “tog‘”i, uning “dashti” bir zum bo‘lsa-da, uni tark etmagan, uni sog‘ingan. “Dasht va tog‘ haqida qissa”, “Dasht haqida ballada” she’rlarida mazkur obrazlar insoniy tuyg‘ular va fazilatlarini o‘zida aks ettirgan.

Shoirning mashhur “Yomg‘ir haqida ballada” she’ri metafora asosida yaratilib, unda haqiqiy oshiq ruhiyati, iztirobli va alamli holati “oshiq yor” qiyofasidagi lirik qahramon “Yomg‘ir” – metaforik obraziga ko‘chirilgan. Bobning “*Folklorizm asosida yaratilgan metaforik obrazlar*” deb nomlangan uchinchi faslida shoir ijodidagi folklor obrazlari stilizatsiyasi tasnifiy o‘rganilgan:

- a) “Alpomish” dostonidagi – *Alpomish, Barchin, g‘oz, Qorajon* obrazlari;
- b) xalq ertaklaridagi *oyna, uchinchi o‘g‘il, “Borsa kelmas”, ajdarho, dev, Gulpari, Qora botir va h.* obraz va motivlari;

v) teomifologik (diniy tushunchalar bilan bog‘liq) – *shayton, farishta, do‘zax, jannat* obrazlari;

g) mifologik – *dev, ajdarho, yuho, Semurg‘* va boshqa stilizatsion folklorizmlarni metaforik qo‘llash orqali davr va jamiyat hayoti manzaralari tasviri, ayrim shaxslar tabiatidagi illatlar ifodalangan.

“Oybarchin bag‘rida-yu”, “Alpomish xususida shoir do‘stim Xurshid Davronga maxfiy xat” va “Turmush manzaralari” kabi she‘rlarida shoir davr hamda zamondoshlar qiyofasi, mavjud tuzum ahvolini metafora yordamida yoritadi. “Turmush manzaralari” she‘rida yaktagi yirtiq chol tilidan Alpomish metaforasini keltirib: “– Bizning azoblarga chiday olmasdan, o‘lib ketar edi Alpomish”, – deya kinoya qiladi. Chunki davrdagi hukmron kuch xalqni shunday qiynoqqa soldiki, uning “hayoti” – “o‘tgan umri” paxtaniki” bo‘lib qoldi.

Xalqimiz ertak va dostonlarida yovuzlik timsoli bo‘lgan dev – shoir she‘rlarida mustabid davr kuchlarini ifodalagan salbiylik tabiatiga ega metaforik obrazdir.

YO, dovdirab **devlar** kelishar – Aylanishar ketishmas nari  
Yana g‘avg‘o qilar surbetlar Ot solaman Ko‘hi Qof sari. (*Usmon Azim, Saylanma, 416-bet.*)

“Yana bir ertak” deb nomlangan sarbast usulida yozilgan she‘rda inson botinidagi nafsoniy istaklar kurashi dev metaforasiga ko‘chirilgan: “... *Butun dunyo kirdi nafasi bilan devning ichiga. Ne-ne orzular ne-ne armonlar ne-ne umrlar...mendan boshqa hamma narsani yutdi. Dev bilan yuragim tengsiz kurashdi*”. Dev – inson botinini egallagan Nafs; lirik qahramonning bu kurashga kuchi yetmay bormoqda. Dunyoviy nafs inson botiniga hukmronlik qilib, uni halokatga yetkazishi haqida I.Haqqulov yozadi: “Nafs – ichki, lekin juda katta dushman. U insondagi butunlikni sindiradi”<sup>60</sup>. Xayoliy-fantastik tasavvurlarga boy ertaklarda zulmkor, odamni yeb qo‘yuvchi ajdar obrazi keng uchraydi. Ajdar, ajdarho, yuho

---

<sup>60</sup> Хаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. -Тошкент: Фафур Ғулом, 1991. – Б. 40.

ko‘rinishdagi mazkur mifologik obrazlar yozma adabiyotda yovuz kuch sifatida salbiy metaforik ko‘chim sifatida qo‘llanilgan: “Xalqiga yov bo‘lsa Agar podshohlik, U yurtga, albatta, Kelar bir ofat. *Devmi, ajdarhomi* – Bir balo-yu bad”. Uning “G‘aroyib ajdarho” ertak dostonida ajdarho podshohlar zulmidan xalqni himoyalovchi ulkan kuch bo‘lib gavdalangan bo‘lsa, quyidagi misralarda turmushning mashaqqatli sinovlarini ifodalagan: “Turmush –

## 1.2- jadval

Shayton o‘z ma’nosida	Mavjud hukmron tuzum ma’nosida	Amaldor shaxslar, munofiq'larga	Ayyop, shum uddabu ron va xudbin shaxs
Faqat ikki yo‘l bor: rahmonning va <i>shaytonning</i> yo‘li..	Erimaydi ko‘zim yoshiga Mustabidlik – <i>shayton</i> qoyasi.	Qasrlarda o‘zlarini o‘ylab Qurishadi <i>shaytonlar majlis.</i>	<i>Kichkina shayton</i> boshimga chiqding <i>Kichkina</i> oyoqchalarining bilan.
Shunday kecha yangi dunyoga Shayton olma urug‘in qadar.	Ammo <b>shayton</b> ajratib qo‘ydi, bu dunyoning insonlarini.	Aldoqlarga sen meni sotding, Sotding shayton hammollariga	Farishtalar gullarni terdi, Gul olmadi ammo shaytonlar
Shayton bitta emas. Soni mingu ming Qancha odam bo‘lsa, shuncha shayton bor.	Zaqqum bosgan elning tuzida, Hali <b>shayton</b> yaratgan kunduz.	Angladim – hasrating Jonimdir manim. Begunoh –gunohni Yaratgan <b>shayton...</b>	Har odam yonida bitta shayton bor. Ammo sen makrda qanchalar beor: Shayton yaratgansan o‘zingdan o‘zing.

**qirg bosh ajdarho** – Ermagiga men – tanho: oyog‘im yurib toldi, tomirim qurib toldi, jigar qon bo‘lib toldi. sabr ong bo‘lib toldi, tongim shom bo‘lib toldi. Turmush **qirg bosh ajdarho** – boru yo‘g‘imni oldi”. Shuningdek,

shayton, farishta, jannat va do'zax kabi teomifalogik obrazlarning metaforik ko'chim ifodasi faol qo'llanilgan bo'lib, ular shoirga mustabid tuzumda yashayotgan inson va uning makonini tasvirlashga, Hurlik g'oyalarini ilgari surishga imkon bergan. Birgina shayton metaforik obrazi o'z ma'nosidan tashqari shoirga turli ko'chma ma'nolarni ifodalash imkonini bergan: Pari, boyo'g'li kabi folklor obrazlari metaforik ko'chim sifatida ifodalangan bo'lsa, jin, ajina, alvasti, yalmog'iz obrazlaridagi metaforiklik tabiat hodisalari bilan bog'liq insonning bolalik va yoshlik taassurotlarini ifodalashga xizmat qilgan. ("Tun. Dasht.", "Bolalikning bir kechasi", "Omonlik yo'q dunyoda" she'rlari) Shuningdek, Hurlik ramzi bo'lgan Semurg' shoir she'rlarida do'stlikni ifodalovchi metaforadir: "*Semurg' bo'lolmassiz, Mensiz do'stlarim*". Folklorizm asosidagi metaforik obrazlar ijodkorga davr manzaralarini yaratish vositasi bo'lib qolmay, uning davr va zamondoshlariga munosabatini ham ifodalagan. Latifa qahramoni Afandi obrazidan shoir laqmalik, soddalikdan ko'ra ayyor, puxta, o'zbilarmon shaxslar timsolini yaratishda foydalangan: Sen Azroilni aldagan **Afandining** o'zi Ertaga kel deysan Haqiqatga! (*Usmon Azim Kuz, 261 bet.*)

"Kichkina shayton" she'rida shaytonni ham dog'da qoldiradigan inson hattoki, Azroilni aldagan "*kichkina shayton*" ayrim insonlardagi ishbilarmonlik, laganbardorlik illatini ochishga xizmat qilsa, uning quvligi Afandi metaforasida yanada oydinlashadi.

### **BOB BO'YICHA XULOSALAR**

1. Saida Zunnunova o'z she'rlarida ko'plab metaforalarni qo'llab, o'z fikrlarini o'quvchilariga tez va tushunarli bo'lishini ta'minlagan. U qo'llagan metaforalar she'rlarini yurakka yaqinlashtirib, ta'sirchanligini yanada oshirgan.

2. Shoir Usmon Azim kuz bilan bog'liq peyzaj she'rlarida tasavvufiy ohanglarni ham singdirib yuboradiki, bunday tasvirlar mohiyatini yoritish, o'rganish alohida mavzu doirasida tadqiq etilishi joiz. Keng qo'llanilgan *barg* ramz metaforasi inson hayotiga mos fojeaviy tasvirlar yaratishda yetakchi poetik ko'chim sifatida tabiat hodisasi va inson umri muqoyasasi hamda tasavvufiy-falsafiy fikrlarni keltirishga xizmat qilgan.

## XULOSA

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan amalga oshirilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish bir qator xulosalar ishlab chiqishga imkon yaratdi:

1. Metaforalogiya – bu metaforalarni o‘rganuvchi soha yoki yo‘nalish hisoblanadi. Metaforalogiya va metafora masalasi bugungi kunda nafaqat filologiya, balki falsafa, mantiq, psixologiya kabi qator gumanitar ilm sohalari tomonidan ham o‘rganilib, metaforaning mohiyati, strukturasi, xillari va ko‘rinishlari borasida yangi-yangi qarashlar paydo bo‘ldiki, natijada ular erishgan yutuqlar asosida tilshunoslikda ham bu masalani qayta ko‘rish zarurati yuzaga keladi.

2. Jahon tilshunosligida ko‘chma ma’nomlarni o‘rganish Aristotel zamonidan boshlangan. O‘tgan davrlar mobaynida metaforaga ko‘plab ta’riflar berilgan bo‘lib, shu soha bilan shug‘ullanganlarning hammasi Aristotel ta’rifini yodga olib o‘tadilar.

3. Metaforani o‘rganishga yondashuvlarning ko‘pligi ko‘plab tasniflarning tug‘ilishiga olib keladi. Turli tadqiqotchilar metaforalarning turlarini o‘zlarining yondashuvlari va mezonlari asosida ajratadilar. Antik davrdan beri ba’zi an’anaviy metafora turlarining turli tavsiflari mavjud. N.D Arutyunova, J.Lakoff va M.Jonson, Jorj A. Miller, Rozental D.E. va Telenkova M.A., Sh.Balli va undan keyin Sklyarevskaya GN, Tsitseron metaforaning turlari turlicha tasniflab o‘z fikrlarini bayon qilishgan.

4. O‘zbek tilida metafora leksik ma’no taraqqiyot yo‘llaridan biri sifatida qaraladi hamda ko‘chimning o‘xshashlikka asoslangan turi sifatida baholanadi. Ko‘chma ma’no biror so‘z leksik ma’nosi referenti bilan obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat, belgi yoki sezgi kabilardan biri aloqador yoki munosabatda bo‘lganligi uchun, uning nomida atalib ketishi orqali yuzaga keladi. Ya’ni so‘z leksik ma’nosi ikkinchi bir leksik ma’noni hosil qiladi. Shu sababli keyingi leksik ma’no metafora deb ataladi.

5. O‘zbek tilshunosligida ko‘chma ma’no turlarini o‘rganishda prof. M.Mirtojiyev va I.Shukurov, Z.Tohirov, D.Xo‘jayeva; shuningdek, prof. Sh.Rahmatullayev va R.Yunusovlarning xizmatlari alohida o‘rin egallaydi.

6. Metaforaga yondosh va o'xshash hodisalar anchagina bo'lib, ko'pincha ular metafora deb atalaveradi. Metaforaning yondosh hodisalardan farqi uni shu xil hodisalar bilan qiyosan olib o'rganganda ochiladi.

7. O'zbek tilida metaforaga yondosh hodisalarga quyidgilar keltirilgan: metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik. Rustam O'rinov, Shavkat Rahmatullayev metafora ko'chimining boshqa turlari bilan sinkretik ishlatila olish imkoniyatiga e'tabor qaratadi. O'zbek tilidan farqli ravishda Ingliz tili uslubshunosligida metafora va unga yondosh hodisalar yuzdan ortiq berilgan. Turli manbalarda turlicha talqin qilishgan. Internet manbalarida ularni og'zaki nutqda yoki yozma nutqda uchraydigan tasvir vositalari sifatida ajratgan.

8. Metaforalar iboralar orqali ifodalanishidagi g'ayriodatiylik kitobxon diqqatini darhol o'ziga jalb etadi, o'ziga xos oxor tutilmaganlik, odatiy emaslik tasvirdagi obrazlilik ustida kitobxonni bir on to'xtashga majbur qiladi. Asardagi pragmatik ko'rinishlarning mana shunday g'ayriodatiyligi, "noto'g'riligi", sirliligi badiiy asar matnida lisoniy-estetik ahamiyat kasb etadi. Badiiy asarlardagi g'ayriodatiy va jonli metaforalar personajlarning ruhiy holati, tabiat tasviri, qahramonlarning voqelikka munosabatini obrazli ifodalash, voqea-hodisalarni ishonarli va yorqin tasvirlashda muhim ahamiyatga ega.

9. Biz xususiy aspektda Saida Zunnunova va Usmon Azim she'riyatida qo'llanilgan metaforalarni lingvistik tahlil qilidik. Ular ijodiga xos bo'lgan individual metaforalarni aniqladik. Shuningdek, biz personifikatsiya (shaxslantirish yoki jonlantirish)ning juda ko'p sonli misollarini keltirdik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 486 б.
2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 592 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. Манба:  
<http://lex.uz/docs/4561730>
4. Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. - Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель).
6. Каримов И. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008.
7. Каримов И. Адолатли жамият сари. -Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
8. Aliqulov T. Funksiologik ko‘chish hodisasiga doir. — Toshkent, O‘zbek tili va adabiyoti, 1965, №6, 24-29 b.
9. Mirzaev I. xos so‘zli sintaktik qurilmalarning tarjimada berilishiga doir.\\ Xorijiy filologiya. – Samarqand. 2002 No 3-B. 6-9.
10. Mirzaev M, Usmonov S, Rasulov I. O‘zbek tili. – Toshkent. Oliy Maktab 1965, 248b.
11. Mirtojiev M. Polisemiyalardan omonimlarning kelib chiqishi haqida. Tilshunoslik masalalari, 1 – kitob, Toshkent. Fan 1960. 11 – 23 b
12. Mirtojiev M. Sinekdoxa va unga yondosh hodisalar. O‘zbek tili adabiyoti, 1967, No1, 33-38 bb
13. Mirtojiev M. O‘zbek tilida polisemiya. Toshkent, Fan, 1975, 128 b
14. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Т.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2013. 267-b



15. Mirtojiev M. Lingvistik metaforalar tasnifi // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1973.- № 4. – Б. 33-37;. Ўзбек тили лексикологияси. – Т.: Фан, 1981.
16. Normurodov R. Perifrazaning shakllanishida ba'zi vositalar orasidagi o'zaro munosabat - Til va adabiyot ta'limi, T.2002 yil, № 6, 14-21 betlar.).
17. Umirov I. O'zbek tili parafrazalari 1997. Toshkent, 18-bet.
18. Алтаев С. Эвфемизмы в туркменском языке. Автореферат кандидатская диссертация. Ашхабад, 1958. Стр. 24.
19. Аристотель. Сочинения в 4 тома. Т. КН. 1-2.1973.
20. Арутюнова Н.Д. Метафоры и дискурс. – М.: Просвещение, 2017. – 158 с.
21. Арнольд И.В. Лексикология современного Английского языка. Москва, 1959, 320 с.
22. Арнольд И.В. Семантика. Стилистика. Интерконтекстуальность: Сборник статей. / С.Пб. Изд.С.Петербург. 4. 1999. - 444 с.
23. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка, М-П. 1981. 348с.
24. Атаханова Г. Национально-культурная специфика разеологических единиц со значением возраста // Преподавание языка и литературы / Ташкент. 2004, № 4. С. 18-24.
25. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М. 1966, 481 с.
26. Ашурова Д.У. Взаимодействие когнитивной лингвистики, стилистики и интерпретации текста. // Филология масалалари. – Тошкент, УзГУМЯ, 2003 - № 2. С. 40-42.
27. Ашурова Д.У. Канрастивная стилистика. Цели направления (на англ.яз)// Қиёсий тилшунослик: анъаналар ва истикбол. Конференция материаллари. Самарканд, 2006. С. 5-6.
28. Бакиева Г.Х. Сематема: содержание и выражение. // Филология масалалари. Тошкент: УзГУМЯ, 2003, №2, 5-8 б.
29. Балли Ш. Французская стилистика. М. 1961. стр.287.

30. Будагов Р.А. Сравнительно-семасиологические исследования. М. 1963, стр.312.
31. Булаховский А.М. Введение в языкознание, Москва, Часть II, 1959, 320с.
32. Бушуй А.М. Идиоэтническая семантика как социально психологическая реальность. // Филология, 5 - Самарканд. САМГУ, 2003 - стр. 23-29.
33. Бушуй А.М. Сущность языка как проблема общей лингвистики. Текст лекции. - Самарканд. Сам ГПИИЯ, 2004. – 92 стр.
34. Бушуй А.М. Языковая репрезентация картины мира в традициях контрастной лингвистики. // Қиёсий тилшунослик: анъаналар ва истиқбол. Конференция материаллари. Самарканд, 2006. С. 7-11.
35. Бушуй А. М. Контрастная лексикография и фразеология как проблема общей и прикладной лингвистики. // Қиёсий тилшунослик: анъаналар ва истиқбол. Конференция материаллари Самарканд, 2006. С, 12-14.;
36. Ван Дейк Т.А. Язык. Познание. Коммуникация. - М.: Прогресс. 1989. -212 стр.
37. Венебичкая А. Язык. Культура. Познание. М,: Русские словари, 1996.120с.
38. Вежбийкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. М.,2001.
39. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова. Вопросм языкознания. 1953. № 5.
40. Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. М., 1977.
41. Гийом Г. Принципы теоритической Лингвистики. М. Прогресс, 1992 -224 стр.

42. Гуревич Л.С. От когнитивного моделирования к семантическому слову. Германистика в России. Традиции и перспективы. -Новосибирск, 2004, - с.28-31.
43. Дюбуа Ж., Мэнге Ф. и др. Общая риторика. / Пер. с фран. М., 1986.
44. Ефимов А.И. Стилистика Художественной речи, М. 1961. 214 с.
45. Кистанова Л.Ф. Функционально-семантическая характеристика глагола Mгe в современном французском языке. АКД. Л., 1967. стр.24.
46. Кобозева И.М. Лингвистическая семантика. - М., 2000. 350 с.
47. Кожин А.Н. Переносные Употребления слова //Москва. Русский язык в школе, 1954, №3, стр. 19-22.
48. Комарова В.П. Метафоры у аллегории и произведениях Шекспира. – Л.: Изд., ЛГУ, 1989-201 с.
49. Макурелкова С.А. Об особенностях метафоры цвета у Донна и Шекспира. // Лингвистические единицы, конструкции и текст.- Новосибирск. 1999-стр. 61-69.
50. Макс Блэк. Метафора // Теория метафоры. М., 1990. С. 153-172. (Пер. М.А. Дмитриевской. статьи Max Black. Metaphor. - In: M. Black. Models and Metaphor. Studies in language and Philosophy. Ithaca- London, Cornell University Press, 1962
51. Маслова В. А. Введение в когнитивную лингвистику. Учебное пособие М. Флинта-Наука, 2004.
52. Махмараимова Ш. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Қарши, 2018. – 168 б.
53. Нурмонов А., Махмудов Н. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент, Фан. 1992.- 448 б.
54. Опарина Е.О. Лингвокультурология: Методологические основания и базовые понятия. // Язык и культура. Сб. Образов. –М. ИНИОН, РАН, 1999, стр.34-35.

55. Пинхасов Я. Ҳозирги замон ўзбек тили лексикаси - Т. Ўқитувчи, 1960.212 б.
56. Раевская Н. Лексикология Английского языка. М. ВШ. 1961.Стр.312.
57. Скляревская Г. Н. Метафора в системе языка. СПб.: Наука, 2016. С.151
58. Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов Н. Тилшуносликка кириш, Тошкент, “Олий Таълим”,1981, 210 б.
59. Соколова Г.Г. Фразеобразование во французском языке. М.1987.
60. Харченко В. К. Функции метафоры. — Воронеж: 2016.— 87 с
61. Холиқова М. Миллий менталитет ва унинг тил картинаси билан ўзаро боғлиқлиги. — Тил ва адабиёт таълими. № 6,2002,23-27 бб.
62. Холматов Ш. Бадиий асар тили, Самарканд, 1992.112 б.
63. Хужаева Д. Ўзбек тили эпитети. Номзодлик диссертацияси., Тошкент. 1996. 150 б.
64. Умуркулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993. – 131 б.
65. Умуркулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. –Тошкент, 2020. – 271 б.
66. Умуркулов З. Эркин Аъзамнинг сўз қўллаш маҳорати. – Тошкент: Турон замин зиё. 2015. – 56 б. Филология фанлари докторлигини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2005. – 237 б.
67. Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва дабиёти. – 1964. - № 4.– Б. 34-36

#### INTERNET MANBALARI

68. <http://www.lcc.gatech.edu/gallery/rhetoric/terms/metaDhOr.html>
69. <http://tscp.open.ac.uk/tl85/html/resources/r2history/html>